

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning
24-iyunidan chiqa
boshlagan

2025-yil 2-may
№18 (3132)

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAHKAM QALQONIDIR!

vatanparvar.uz

*Yurtni mardlar qo'rib kelayotirlar,
Vatan desa, joni nisor botirlar.
Baland-pastni ko'rib kelayotirlar,
Burgutmi yo lochinmi, sor botirlar.*

Iqbol MIRZO,
O'zbekiston xalq shoiri



IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

t.me/mv_vatanparvar_uz
vatanparvar-bt@mail.uz
facebook.com/mudofaavazirligi



t.me/mudofaavazirligi
instagram.com/mudofaavazirligi
youtube.com/c/uzarmiya

9-may – Xotira va qadrlash kuni

FIDOKORONA MEHNNATLAR

E'ZOZI

Mamlakatimizda 9-may – Xotira va qadrlash kunini keng nishonlash, Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabaga hissa qo'shgan urush va mehnat faxriylariga hamda Vatan himoyasi uchun kurashgan buyuk ajdodlarimizga alohida e'tibor va chuqur ehtirom ko'rsatish, shuningdek mustaqillik yillarida xizmat burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari xotirasini ulug'lash yurtimizda oliyanob qadriyatga aylangan.

Ikkinchi jahon urushida o'zbek xalqining ko'rsatgan jasorati, birdamligi va mehnatsevarligi butun dunyoga namuna bo'ldi. Ularni chuqur o'rganish, xotirasini abadiy saqlash, har bir avlodning muqaddas burchidir.

Qonli jang maydonlarida mardlik ko'rsatib, front ortida mehnat qilib, bugun hayotimizga fayz bag'ishlab

yurgan muhtaram faxriylarimiz oldida barchamiz bosh egib, ta'zim qilamiz. Qayd etish lozimki, o'zbekistonliklarning Ikkinchi jahon urushida ko'rsatgan jasoratlari insoniyat yodida abadiy qoldi.

Birgina misol. Yaqinda mamlakatimizga tashrif buyurgan Rossiya parlamenti yuqori palatasi raisi V. Matviyenko yurtimizda istiqomat qilayotgan bir guruh Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, ularga tenglashtirilgan fuqarolar va Leningrad blokadasida omon qolganlar bilan uchrashib, Rossiya xalqi hamda Prezident Vladimir Putinning ezgu salomlarini hamda g'alabaga qo'shgan hissasi uchun tashakkurini izhor etdi.

Ikkinchi jahon urushi davrida jami **1 million 951 ming** o'zbekistonlik frontga safarbar etilgan. O'sha payt O'zbekiston aholisi **6,5 million** edi. Har **3 nafar vatandoshimizdan bittasi qo'lga qurol olib, jangga otlangan**. Bular shunchaki, oddiy raqamlar emas. Ular ortida fidoyilik, hurlik, istiqlo, erkinlik orzulari mujassam bo'lgan.

Prezidentimiz tashabbusi bilan Ikkinchi jahon urushi yillaridagi tariximizni o'rganishda tom ma'noda yangi davr

boshlandi. Masalan, **2020-yilga** qadar urush boshlangan paytda yurtimiz aholisi **6 million 551 ming** kishini tashkil etgan va ularning **1 million 500 mingga** yaqini urushda ishtirok etgan, deb hisoblanar edi. Jahon arxivlari o'rganilib, yangi topilgan ma'lumotlar tahlil qilinganda esa O'zbekistondan yuqorida qayd etilganidek **1 million 951 mingga** yaqin kishi urushga safarbar etilgani aniqlandi. Demak, **451 ming nafar** yurtdoshimizning nomi va taqdiri shuncha yillar davomida e'tibordan chetda qolib kelgan.

Bundan tashqari, ilgari **396 ming nafar** O'zbekiston fuqarosi urushda halok bo'lgan, deb aytilardi. Aslida bu raqam **538 mingdan** ziyod bo'lgan bo'lsa, **158 mingdan ko'prog'i** bedarak yo'qolgan. Urushdan "qoraxat" kelganlarga aza ochilgan bo'lsa, bedarak ketgan askarlar yaqinlarining musibati undan ham og'irroq bo'lgan. Ular daragi chiqmagan askar o'g'lini, askar turmush o'rtog'ini, askar otasini, "Balki, kelib qolar", deya bir umr kutgan, yillab izlagan.

O'zbek xalqining matonati va millatga xos alohida xususiyatlari natsistlarni ham hayratda qoldirganiga hech shubha yo'q. Mana, dahshatli urushda xalqimiz qanday og'ir yo'qotish va talafotlarni ko'rgan, qanday azob-uqubatlarni boshdan kechirgan!

Bundan tashqari, ilmiy izlanishlar natijasida orden va medallar bilan mukofotlangan O'zbekiston vakillarining soni bo'yicha ham oydinlik kiritildi. Ilgari bu ko'rsatkich **120 ming** deb qayd etilar edi. Yangi ma'lumotlarga asosan, Ikkinchi jahon urushida **200 mingdan ziyod** askar va ofitser jangovar davlat mukofotlari bilan taqdirlangani aniqlandi. Jumladan, ilgari **280 nafar** deb hisoblab

kelingan o'zbekistonlik Sovet Ittifoqi Qahramonlarining soni **301 ta** ekani, **70 nafar** yurtdoshimiz uchala darajadagi "Shuhrat" ordeniga sazovor bo'lgani tarixiy haqiqatning yuzaga chiqishiga olib keldi. Shu o'rinda Sovet Ittifoqi Qahramoni bo'lgan birgina o'zbek o'g'lonining Ikkinchi jahon urushida ko'rsatgan matonati to'g'risida gapirib bersam.

1917-yilda Toshkent shahrida tug'ilgan, 1941-yilning iyunidan urush qatnashchisi bo'lgan Samig' Abdullayev 97-alohida motorlashgan muhandislik-sapyorlik batalyoni bo'linmasi komandiri lavozimida xizmat qilgan. 1943-yilning kuzida Kuban daryosi etagi va Taman yarimorolini ozod qilish vaqtida jonbozlik ko'rsatgan. 1943-yil 16-sentabrda Krasniy posyolkasi hududida sapyorlar dushman o'qlari ostida tungi qorong'ilikda dushmanning 97 ta minasini aniqlab, zararsizlantiradi. Ulardan 37 tasini aynan **Samig' Abdullayev** yo'q qilgan va buning natijasida tankchilar uchun alohida yo'l ochilgan. Biroq brigada oldida yangi to'siq yuzaga keladi: gitlerchilar daryo orqali ko'prikn portlatadi. Samig' Abdullayevning bo'linmasi uch soat ichida o'q yomg'iri ostida kechuv joyini tiklashga muvaffaq bo'ladi va tanklar oldinga qarab harakatlanadi.

Ertasiga Abdullayev shaxsan boshqa ko'prikn portlashining oldini oladi: ko'prikn tayanchiga emaklab borib, yonayotgan bikford arqonini kesib tashlaydi. Bu topshiriqni bajarish vaqtida Abdullayev yaralanadi, lekin jang maydonini tark etmaydi. 16-sentabrdan 9-oktabrgacha bo'lgan vaqt oralig'ida Samig' Abdullayev dushman o'qlari ostida turli toifadagi qariyb 3 000 ta mina, jumladan 39 ta olib bo'lmaydigan va 34 ta "mina-syurpriz"ni topib, zararsizlantirgan.



1944-yil 16-mayda **Samig' Abdullayev**ga Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni beriladi. Shu bilan birga, 24 yoshda Sovet Ittifoqi Qahramoni bo'lgan O'rinboy Abdullayev, general Sobir Rahimov, Sharof Rashidov, Zebo G'aniyeva, To'xtasin Ahmedov, Ahmadjon Shukurov va boshqa ko'plab vatandoshlarimizning jasorati ham alohida e'tirofga loyiqdir.

Bundan tashqari, Ikkinchi jahon urushida bevosita jangovar harakatlarda ayollar ham qatnashgan. Davlat mudofaa qo'mitasi urushning ilk kunlaridan boshlab ayollarni ham urushga yuborish borasida bir qator qarorlar qabul qilgan.

Garchi avvaliga frontga borish ko'ngilli bo'lgan bo'lsa-da, 1942-yilning bahoridan boshlab, harakatdagi qo'shin safiga ayollarni ommaviy ravishda safarbar etish bo'yicha bir to'xtamga kelingani ma'lum. O'zbekistondan **4 555 nafar** ayol urushda qatnashgan, ularning orasida aloqachi, uchuvchi, mergan, zenitchi, tibbiy xodim va razvedkachilar bor edi. O'zbekistonlik Zebo G'aniyeva ham "Sovet Ittifoqi Qahramoni" unvoniga sazovor bo'lgan. Qayd etish lozimki, o'sha olovli yillarda O'zbekistonda yetti yoshdan yetmish yoshgacha bo'lgan butun xalqimiz, shu jumladan ayollar va yosh qizlar "Hamma narsa – front uchun, hamma narsa – g'alaba uchun!" deb yashadi, orom va halovatdan voz kechib, tinimsiz og'ir mehnat qildi. Respublikamiz frontning mustahkam ta'minot bazasiga aylandi.

Ishlab chiqarish korxonalari harbiy maqsadlarda qayta tashkil etildi. Jumladan, ko'p millatli aholimizning fidokorona mehnati bilan o'sha vaqtdagi **300 ga yaqin** ishlab chiqarish korxonasida harbiy mahsulotlar ishlab chiqarildi. Shu davrda front hududlaridan yurtimizga **151 ta**

zavod ko'chirib keltirilib, qisqa fursatda ishga tushirilgan. Ushbu zavodlarda keksalar, ayollar, o'smir bolalar tun-u kun mashaqqatli mehnat qilgani haqiqiy fidoyilik, qahramonlik namunasi, desak aslo xato bo'lmaydi.

1941-yil 26-iyundan boshlab, mamlakatda ishchilar va xizmatchilar uchun ishdan tashqari vaqtda majburiy ishlab berish, katta yoshdagilar uchun haftada 6 kunlik ish joriy etildi, ish vaqti 11 soatgacha uzaytirildi, ta'tilga chiqish bekor qilindi. Idora xizmatchilari, uy bekalari, o'quvchilar ishlab chiqarishga jalb qilindi. Agar 1940-yilda sanoat ishchilari orasida xotin-qizlar salmog'i **34 foizni** tashkil qilgan bo'lsa, 1942-yilda bu ko'rsatkich **63,5 foizga** yetdi.

Buning natijasida, O'zbekiston urush yillarida front uchun **2 100 ta samolyot, 17 342 ta aviamotor, 2 mln 318 ming dona aviabomba, 60 mingga yaqin harbiy-kimyoviy apparatura, 22 mln dona mina va 560 ming dona snaryad, 1 mln dona granata, 330 mingta parashyut**, harbiy ehtiyoj uchun 100 ming km.dan ortiq **turli simlar, minalarni aniqlab** beruvchi **4 ming 500 dona** qurilma, **2 mln 861 ming** dona **armiya etigi** hamda 59 mingdan ortiq **ot** va ko'pgina boshqa harbiy anjomlar yetkazib berish imkoniga ega bo'ldi. O'zbekiston mehnatkashlari to'plagan mablag'lar hisobidan o'nlab harbiy samolyot, tank, jangovar mashinalar barpo etildi. Muhtaram faxriylarimizning urushdan keyingi og'ir tiklanish yillaridagi buyuk xizmatlarini xalqimiz aslo unutmaydi. Ularning mardlik va matonatlari, mehnat jasoratlari bugungi va kelgusi avlodlar uchun hamisha ibrat namunasi bo'lib qoladi.

Yuqorida qayd etilganidek, urush yillarida **158 mingdan** ortiq kishi bedarak yo'qolgan. Bu dahshatli darajadagi katta raqam. Buning

ustiga, bedarak yo'qolgan har bir odamning ortida qolgan yaqinlari chekkan iztiroblarini ham tasavvur qilish qiyin emas. Shu bois ularning taqdiriga aniqlik kiritish ishlari shu kunlarga ham to'xtagani yo'q.

Muhtaram Prezidentimizning 2019-yil 23-oktabrdagi "Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabani 75 yilligini nishonlash to'g'risida"gi qarori bilan Toshkent shahrining Olmazor tumanida **"G'alaba bog'i"** yodgorlik majmuasi tashkil qilindi. "G'alaba bog'i"da urush yillarida xalqimiz ko'rsatgan beqiyos qahramonlikni ulug'laydigan, o'zida ona Vatan timsolini mujassam etgan **"Matonat madhiyasi"** monumenti yodgorlik majmuasi qandaydir badiiy obraz emas, balki hayotimizda haqiqatan ro'y bergan tarixiy voqea – zangiotalik **Zulfiya Zokirova** va uning oilasi to'g'risidagi haqiqat asos qilib olingan.

Zulfiya Zokirova yolg'iz o'zi besh o'g'il, bir qizni voyaga yetkazgan. Ikkinchi jahon urushida beshta azamat o'g'lidan judo bo'lgan. G'alaba bog'ining markazida joylashgan bu muazzam obida barcha **O'zbekiston onalariga qo'yilgan haykal bo'lib, ona Vatan ramzini ifoda etadi**. Asosiy maqsad esa biz hozirgi va kelajak avlodni ota-bobolar ruhini hurmatlash, millatni sevish, ushbu yurtning har qarich tuprog'ini qadrlashga o'rgatish, ezgulik va rahmdillik singari xalqimizning ko'p asrlik an'analarini hurmat qilish ruhida tarbiyalashdir. Bu esa birinchi galda, ajdodlar xotirasiga chuqur ehtirom bilan qarashdan boshlanadi. Zero "G'alaba bog'i" xalqimizning qahramonligini ulug'laydigan, uning qadr-qimmatini yuksaltiradigan betimsol majmuadir. Vaqt o'tadi, zamonlar o'tadi,



Qutbiddin BURHONOV,
Oliy Majlis Senati Mudofaa va
xavfsizlik masalalari
qo'mitasi raisi

lekin uzoqni ko'zlab, hayotning o'zi o'rtaga qo'yayotgan talablarni inobatga olib, odamiylik, insonparvarlik fazilatlarini ulug'lash, umuman, Vatan uchun, el-u yurt uchun xizmat qilgan insonlarning nomlarini saqlash, inson xotirasini qadrlash yo'lida qilingan bunday savobli ishlar hech qachon unutilmaydi.

Joriy yilning fevral oyida davlatimiz rahbarining tegishli qarorlari bilan Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabani 80 yilligi hamda 9-may – Xotira va qadrlash kunini **"Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi"** shiori ostida o'tkazish belgilandi.

Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g'alabani 80 yilligi sharafiga "Ikkinchi jahon urushidagi g'alabani 80 yilligi" esdalik yubiley medali ta'sis etildi. Albatta, so'nggi yillarda mamlakatimizda Ikkinchi jahon urushining har bir qatnashchisiga g'amxo'rlik ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ularning har biriga moddiy, ma'naviy va boshqa turdagi yordam berilmoqda. Bularning barchasi Yangi O'zbekistonda xalq jasoratiga ko'rsatilayotgan yuksak ehtirom namunasidir. Zero tarixiy xotira barchamizni o'tmishdan to'g'ri xulosa chiqarib, doimo hushyor va ogoh bo'lish, ajdodlarimizdan ibrat olib yashashga da'vat etadi.

Insoniyat tarixidagi eng dahshatli qirg'in – Ikkinchi jahon urushining tugaganiga 80 yil to'lgan bo'lsa-da, afsuski, Yer yuzining turli burchaklarida, jumladan mintaqamizga yaqin hududlarda qarama-qarshilik, qonli to'qnashuvlar davom etmoqda. Shu sababli doimo hushyor va ogoh bo'lishimiz, mustaqilligimizni mustahkamlab, Vatanimiz qudrati, Qurolli Kuchlarimiz salohiyatini yanada oshirishimiz zarur.



Mardi maydonlar



ARTILLERIYADA ANIQLIK

Sir emaski, butun dunyo bo'ylab iqlim o'zgarib bormoqda. Aprel oyi oxirlab borayotganiga qaramasdan, yozning jaziramasiga guvoh bo'lib turibmiz. Ayniqsa, oxiri ko'rinmaydigan, sarg'ayib qolgan giyohlardan boshqa biror daraxt yoki butalarga ko'z tushmaydigan, uzoq kengliklarga tutashib ketgan "Kattaqo'rg'on" dala-o'quv maydonidagi harorat yanada issiq.



Olis-olislariga nazar tashlarkanman, yerdan qaytgan issiqlik, tabiat tomonidan asrlar davomida barpo bo'lgan tosh va tuproqlar tasvirini xiralashtiradi. Har zamonda esib turadigan issiq shamolni hisobga olmaganda, doimiy sokinlik hukm suradi. Vatan himoyachilari nafaqat shartli dushman bilan, balki tabiat inijliklari bilan ham kurashishga majbur. Ammo ob-havoning bunday inijliklari harbiy xizmatchilar matonati va irodasini buka olmaydi. Har qanday sharoitda ham Vatan himoyasi yo'lidagi mashaqqatga o'zida ko'nikma hosil qilgan bo'lg'usi ofitserlar topshirilgan vazifani a'lo darajada bajarishga kirishdi.

Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti bitiruvchi kursantlari artilleriya qurollarini pozitsiyaga joylashtirish bilan shug'ullanmoqda. Navbat amaliy mashg'ulotlarga yetib keldi. O't ochish pozitsiyalarini muhandislik jihozlash, muhitga mos niqoblanish, uchuvchisiz uchish apparatlari yordamida nishon koordinatlarini tez sur'atda aniqlash va uni yakson etish usullari bo'yicha ishlab chiqilgan yangi taktik qo'llanmalar asosida o'zaro tajriba almashildi. Uchuvchisiz uchish apparatlari yordamida nishonlargacha bo'lgan masofalar aniqlandi. Shundan so'ng aniqlangan shartli dushman makonini to'plar orqali yakson etish uchun koordinatalar to'g'rilandi va o't otishga buyruq olingach, artilleriya stvolidan chiqayotgan snaryadlar o'zidan olov, chang va kuchli ovoz qoldirgancha belgilangan nishonlar tomon "uchishni" boshladi. Ketma-ketlikda davom etgan o't ochish jarayoni 5-6 daqiqa ichida to'xtatildi hamda nishonlar ko'zdan kechirildi.

– Artilleriyada aniqlik o'ta muhim, – deydi podpolkovnik Farrux Jumanioyov. – Ana shundan kelib chiqib, harbiy xizmatchilar o'quvlar davomida har bir omilni e'tiborga olib, topshiriqlarni sidqidildan bajarmoqda. Komandirlar har bir jarayonni tahlil etib bordi. Shaxsiy tarkib qayd etilgan natijalarni o'rganyapti. O'zi



umuman, yetakchi qo'l ostidagilar bilan hamjihatlikda ish olib borishi kerak. Nostandart vaziyatlarda mustaqil va tezkor qaror qabul qilish vazifalarni sifatli yakunlashga xizmat qiladi. Buni o'tkazilayotgan ushbu mashg'ulotlarda ham ko'rib, guvohi bo'lyapmiz. Aytish kerakki, artilleriya mutaxassisi hamisha va hamma vaqt o'z bilim hamda ko'nikmalarini mustahkamlashi va oshirib borishi kerak. Chunki ular berilgan nishonni olis masofadan aniqlab yakson etadi. Agar yetarli tajribaga ega bo'lmasa, bunday vaziyatlarda harbiy xizmatchi shoshib qolishi mumkin. Demak, Vatan himoyachilari nafaqat jamoaviy, balki yakka tartibda ham o'rganishi kerak. Shunda ular muvaffaqiyat qozonadi.



O'TA MUHIM



Muallif suratga olgan



Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtining II va III bosqich kursantlari jarayonlarni bevosita kuzatish barobarida o'zlari ham berilgan vazifalarni bajardi.

– 4 yil ko'z yumib-ochguncha o'tib ketdi, – deydi Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurtining IV bosqich kursanti Rahmatilla Erkinov. – Shu vaqt davomida tanlagan kasbimizni chuqur o'rganish va sir-asrorlarini o'zlashtirishga harakat qildik. Va albatta, bu bilan to'xtab qolmaymiz. Yaqin kunlarda faoliyatimizni qo'shinlarda davom ettiramiz. Nazariy olgan bilimlarimizni endilikda amaliyot bilan bog'laymiz. Bo'ysunuvchilarimizning ko'nikmalarini oshirishga mas'ulmiz. Mana shu

jihatlarni esdan chiqarmagan holda bugungi o'quvlarda ishtirok etyapmiz. Bizdan keyingi kursantlarga ayni sohada o'rgangan bilimlarimizni namoyish qilyapmiz. Bilasizmi, kishi o'zi tanlagan sohasining eng zo'ri bo'lmaguncha to'xtamasa, kun kelib, yuqori natijalarni qayd etadi. Ayni hikmat mag'zini chaqqanlarni ko'p bor kuzatganman. Va o'zim ham shu yo'lda dadil boryapman. Demak, maqsad aniq bo'lsa, harakatlaringiz ham dadil va ishonchli bo'ladi.

Darhaqiqat, bo'linmalardan har qanday sharoitda qo'yilgan vazifalarni bajarish talab etiladi. Bir chiziqqa yoyilgan harbiy texnikalarda navbat bilan harakat olib borildi. Umuman olganda, dala-o'quv maydoni bo'ylab haqiqiy jang muhiti yaratildi. Har bir jarayon mintaqadagi harbiy-siyosiy vaziyat, qurolli to'qnashuvlarning qiyosiy tahlili asosida tashkil etilgani bilan ahamiyatli bo'ldi. Azamatlar barcha nishonlarni bexato va aniq yakson etib, oldilariga qo'ygan maqsadiga erishdi.

Artilleriya to'plaridan otilayotgan snaryadlarning vahimasi quloqlarni qomatga keltiradi. Poligonda ko'tarilgan chang-to'zonga boqar ekanman, beixtiyor Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari bilan bo'lgan suhbat yodimga tushdi. Faxriy otaxonlarning xotiralarini hozir maydondagi vaziyat bilan solishtiraman. Biroq ular hikoya qilib bergan jarayonlarni to'liq anglamayman. Shunday bo'lgani ham qanday yaxshi, deyman shivirlab. So'ng kursantlarni obdan kuzatishga o'taman. Ular mo'ljalni to'g'ri olganidan quvonishadi. Mamnuniyat bilan bir-birlarini quchib qo'yishadi. Nigohlar yanada o'tkirlashib, qat'iy qadamlar tashlanadi. Keyin faqat dala-o'quv maydonlaridagi nishonlar tomon otilaversin, bu snaryadlar deyman-da, mayda-mayda qadam tashlab, kursantlar ortidan ergashaman.

Sherzod SHARIPOV,
“Vatanparvar”



Tajriba



KOMANDIRLAR

BILIM VA MALAKASI
SINOVDAN O'TKAZILDI

Shimoli-g'arbiy harbiy okrugda batalyon, divizion komandirlari va ularning o'rinbosarlari komandirlik tayyorgarligi dasturi yakunlari bo'yicha yig'inda ishtirok etdi.



Bir necha kun davom etgan yig'in nafaqat bo'linma komandirlari va o'rinbosarlarining kasbiy malakasi va bilim darajasini, balki ularga dunyo tajribasidan kelib chiqib, zamonaviy jangovar operatsiyalarni olib borish, qo'shinlarni har xil vaziyatda boshqarish va qo'yilgan o'quv-jangovar vazifalarni sifatli bajarish mahoratini ham sinovdan o'tkazdi.

Ta'kidlash joizki, so'nggi yillarda dunyo miqyosida olib borilayotgan zamonaviy jang va harbiy mojarolarning tahlili bo'linma komandirlaridan kuchli jangovar va axloqiy-ruhiy tayyorgarlikka ega bo'lishni, kasbiga mas'uliyat va sadoqat bilan yondashishni, ekstremal vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilishni talab etmoqda. Bu borada qo'shinlar jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarini takomillashtirish, yangi taktik usul va uslublarni qo'llash, zamonaviy navigatsiya va axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha dasturga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonligi tashabbusi bilan harbiy qismlarning birida hamda "Nukus" umumqo'shin poligoni negizida o'tkazilgan sinovlar o'quv-uslubiy yig'in sifatida o'tkazildi.

Bo'linmalarining jangovar tayyorgarligi va shayligini yuqori bosqichga ko'tarish, komandirlarning shaxsiy mas'uliyati, kasbiy mahorati, bilim va ko'nikmalarini yuksaltirish, oldiga qo'yilgan o'quv-jangovar vazifalarni sifatli bajarishga, bo'ysunuvchilarning ta'lim-

tarbiya jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan keng foydalanishga o'rgatish maqsadida o'tkazilgan yig'in mashg'ulotlari sermazmun va sermahsul bo'ldi.

Nazariy qismda ishtirokchilar bilan taktika, otish, harbiy topografiya, tibbiy, ommaviy qirg'in qurollaridan himoyalash, razvedka, aloqa, maxsus, saf va axloqiy-ruhiy tayyorgarliklarda mashg'ulotlarni to'g'ri tashkillashtirish hamda o'tkazishda interfaol usullar, multimedia hamda ko'rgazmali vositalardan foydalanish bo'yicha tajribali ofitserlar ko'magida tavsiyalar berildi.

Belgilangan vazifalar bo'yicha ishtirokchilar individual tarzda baholab borildi. Amaliy mashg'ulotlar "Nukus" umumqo'shin poligonida o'tkazilib, unda o'q otish, jangovar va harbiy texnikalarni boshqarish hamda sohaga oid fanlar bo'yicha sinovlar qabul qilindi.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug matbuot xizmati

Ilk ko'nikmalar

Qoraqalpog'iston Respublikasidagi jami 758 ta ta'lim muassasasini tamomlayotgan 11-sinf o'g'il bolalaridan jami 15 917 nafar yosh Shimoli-g'arbiy harbiy okrug tasarrufidagi "Nukus" umumqo'shin poligonida bir kunlik boshlang'ich harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlarini o'tab, quroldan amaliy o'q otish mashqini bajardi.

AMALIY

O'Q OTISH MASHQLARI



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-noyabrda "O'quvchi-yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 8-noyabrda "Ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarorlariga muvofiq, mamlakatimiz yoshlarini harbiy-vatanparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongiga tinchlik va totuvlikni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash zarurligini chuqur singdirish, ularning barcha yo'nalishlarda bilim va ko'nikmalarini oshirish, shuningdek chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini takomillashtirish maqsadida har yili umumta'lim maktablarining o'g'il bolalari bilan harbiy poligonlarda bir kunlik amaliy mashg'ulotlar tashkil etilib, avtomatdan o'q otish belgilangan.

Mazkur qarorlar mamlakatimizning tarixi va boy madaniyati, buyuk ajdodlarimizning, eng avvalo, sohibqiron

Amir Temurning bebaho merosi, Vatanimiz ozodligi va el-yurt tinchligi yo'lida mardlik va jasorat ko'rsatgan vatandoshlarimizning qahramonligi asosida O'zbekiston xalqiga sodiq, qat'iy hayotiy qarashlar va faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash, ularni harbiy xizmatga puxta tayyorlash tizimini yuqori bosqichga ko'tarishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrugga qarashli "Nukus" umumqo'shin poligoni negizida 16 mingga yaqin qoraqalpog'istonlik bitiruvchi sinf o'quvchisi jangovar quroldan amalda tayyorlov o'q otish mashqlarini bajardi.

Poligonda yaratilgan o'quv nuqtalarida ofitser va serjantlar rahbarligida yuqori sinf o'quvchilarining jangovar qurollar bilan muomala qilishi, ulardan foydalanishi va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya etishi bo'yicha tushunchalar berilib, o'quv nuqtalarida granatalarni uloqtirish, avtomatni o'qlash, aniq mo'ljalga olishni o'rganish, turli holatlardan qurolni otishga tayyorlash, avtomatni noto'liq qismlarga ajratish va yig'ish kabi mashqlar yoshlar tomonidan katta qiziqish bilan bajarildi.

Birinchi marotaba quroldan amaliy o'q otish mashqlarini bajargan yoshlar 100 metr uzoqlikda turgan nishonga qarata o'q uzib, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanidan olgan nazariy bilimlarini amalda mustahkamlash imkoniga ega bo'lmoqda.

Mashg'ulotlar doirasida o'rganuvchilarga jangovar texnika, qurol-aslaha, harbiy anjom va o'qotar qurol namunalari ko'rgazmasi ham tashkil etildi. Haqiqiy qurollar bilan tanishuv, ularning jangovar imkoniyatlari va texnik tavsifi haqidagi ma'lumotlar bo'lajak yurt himoyachilarida katta taassurot qoldirdi.

Mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda xalqimiz tarixiga va ma'naviy qadriyatlariga yuksak hurmat tuyg'usini shakllantirish, Vatan himoyasiga, uning milliy xavfsizligi, hududiy yaxlitligi va suverenitetini ta'minlashga doimo shay turishga hamda harbiy xizmatni o'tashga tayyorlash tizimini isloh qilish natijasida yoshlarni harbiy xizmatga qadar tayyorlashning tizimini yanada rivojlantirishga erishilmoqda.

Podpolkovnik Timur NARZIYEV,
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug
matbuot xizmati boshlig'i

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

O'zbekiston Ikkinchi jahon urushi maydonlariga juda katta miqdorda harbiy texnika, qurol-yarog', dori-darmon, kiyim-kechak, oziq-ovqat mahsulotlari yetkazib beradigan muhim tayanch markazlaridan biriga aylangan. Ishlab chiqarish korxonalari harbiy maqsadlarda qayta tashkil etilgan. Jumladan, ko'p millatli aholimizning fidokorona mehnati bilan o'sha vaqtda 300 ga yaqin harbiy mahsulot ishlab chiqarilgan. Shu davrda front hududlaridan yurtimizga 151 ta zavod ko'chirib keltirilib, qisqa fursatda ishga tushirilgan.



O'CHMAS U KUNLAR SHUHRATI



Ayni ma'lumotlar poytaxtimizdagi "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasi hududidagi "Shon-sharaf" davlat muzeyida "Ikkinchi jahon urushi: ilmiy tadqiqotlar va tarixiy ma'lumotlar" mavzusida o'tkazilgan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada qayd etildi. Unda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi vakillari, Mudofaa hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirliklari mutasaddilari, "Ajdodlar izidan" harbiy-tarixiy jamiyati mutaxassislari, tarixchi olimlari, kursantlar va keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Dastlab anjuman ishtirokchilari bog' hududidagi "Matonat madhiyasi" monumenti poyiga gulchambarlar qo'ydi. Unda Senat a'zolari va qo'mita huzuridagi ekspertlar, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari akademiyalari, Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti, Bojxona instituti, Jamoat xavfsizligi universiteti kursantlari mardlik, fidoyilik va jasorat namunasini ko'rsatgan ajdodlarimiz xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Xalqaro anjumanda mudofaa vazirining o'rinbosari general-mayor Hamdam Qarshiyev O'zbekiston urush tufayli uy-joyi, ota-onasi va qarindoshlaridan ajralgan qariyb 1,5 mln kishini o'z yaqinlaridek qabul qilganini ta'kidladi. Tadbirda Prezidentimizning 2025-yil 20-fevraldagi "Ikkinchi jahon urushidagi g'alabaning 80 yilligi

hamda Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko'rish va uni munosib nishonlash to'g'risida"gi qarorida ko'zda tutilgan masalalarning mazmun-mohiyatiga e'tibor qaratilib, urush yillari bedarak yo'qolgan 158 mingdan ortiq kishini qidirish, ularning taqdiriga aniqlik kiritish ishlarida erishilgan natijalarga to'xtalib o'tildi.

– Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va front ortida fidokorona mehnat qilganlarni e'zozlash O'zbekiston ijtimoiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir, – deydi Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi Qutbiddin Burhonov. – O'zbekiston parlamenti delegatsiyasi yaqinda bo'lib o'tgan MDH Parlamentlararo ittifoq assambleyasining Ikkinchi jahon urushidagi g'alabaning 80 yilligiga bag'ishlangan majlisida ishtirok etdi. Tadbirda urush yillarida O'zbekiston xalqining frontda va front ortida ko'rsatgan beqiyos jasorati va mehnati alohida e'tirof etildi. O'zbekiston delegatsiyasining mazkur majlisdagi ishtiroki mamlakatimizda Ikkinchi jahon urushi faxriylarini qadrlash, tarixiy xotirani saqlash va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan siyosatning xalqaro darajadagi ifodasi bo'ldi.

Konferensiyaning yalpi majlisida onlayn tarzda Belarus Respublikasi Kruglyansk tumani tarixiy o'lkashunoslik muzeyi direktori Via Gapayevaning "O'zbekistonlik

partizanlar Kruglyan yerida", Isroilning "Jasorat va xotira" loyihasi direktori David Kalontarovning "Oliyjanob oila, qahramon o'g'illar, solih odamlar", Moskva aviatsiya instituti qidiruv loyihasi rahbari Aleksandr Gribovskiyning "Sovet harbiy asirlari uchinchi Reyxning konslager tizimida" mavzusidagi qiziqarli ma'ruzalari yig'ilganlarga manzur bo'ldi.

Ikkinchi jahon urushi yillaridagi tariximizni o'rganishda tom ma'noda yangi davr boshlandi. Xususan, 2020-yilga qadar urush boshlangan paytda yurtimiz aholisi 6 mln 551 ming kishini tashkil etgan va ularning 1,5 mln.ga yaqini urushda ishtirok etgan, deb hisoblanar edi. Jahon arxivlari o'rganilib, yangi topilgan ma'lumotlar tahlil qilinganda esa O'zbekistondan 1,951 mln.ga yaqin kishi urushga safarbar etilgani ma'lum bo'ldi. Bundan tashqari, ilgari 396 ming nafar O'zbekiston fuqarosi urushda halok bo'lgan, deb aytilgan bo'lsa, aslida bu raqam 538 mingdan ziyod bo'lgan, 158 mingdan ko'prog'i bedarak yo'qolgan. Ilmiy izlanishlar natijasida orden va medallar bilan mukofotlangan O'zbekiston vakillarining soniga ham oydinlik kiritildi. Ilgari bu ko'rsatkich 120 ming deb qayd etilgan bo'lsa, yangi ma'lumotlarga asosan, Ikkinchi jahon urushida 200 mingdan ziyod askar va ofitser davlat mukofotlari bilan taqdirlangani aniqlandi. Jumladan, ilgari 280 nafar deb hisoblab kelingan o'zbekistonlik Sovet Ittifoqi Qahramonlarining soni 301 ta

ekani, 70 nafar yurtdoshimiz uchala darajadagi "Shuhrat" ordeniga sazovor bo'lgani o'z tasdig'ini topdi va tarixiy haqiqat yuzaga chiqdi. Konferensiyada shu kabi yangi ma'lumotlar keng jamoatchilik vakillariga yetkazildi.

Ta'kidlanganidek, Ikkinchi jahon urushi haqiqatan ham insoniyat tarixidagi eng dahshatli, eng qonli qirg'in bo'lgan. Bu urush insoniyat, shu jumladan xalqimiz boshiga qanday og'ir azob-uqubat va talafotlar, behisob qurbonlar keltirganini el-yurtimiz hech qachon unutmaydi. Anjumanda Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va front ortida fidokorona mehnat qilgan faxriylarimizning qahramonligi va tarixiy xizmatlarini yana bir bor keng jamoatchiligimizga yetkazish, yosh avlodni ota-bobolarimiz jasoratiga munosib bo'lgan, bugungi tinch, osoyishta hayotni asrab-avaylash va yanada mustahkamlashga qodir, jonajon Vatanimizga sadoqatli etib tarbiyalashga e'tibor qaratildi.

Anjuman doirasida "Bolalikning so'nggi yozi" nomli hujjatli film, O'zbekistonda Shanxay hamkorlik tashkiloti Xalq diplomatiyasi markazi, Adliya vazirligi huzuridagi "O'zarxiv" agentligi hamda "Shon-sharaf" davlat muzeyi hamkorligida "O'chmas u kunlar shuhrati" nomli tarixiy fotolavhalar ko'rgazmasi namoyish etildi.

**Katta leytenant
Dilshod RO'ZIQULOV,
"Vatanparvar"**

“Jadidlarning ma'naviy qahramonligi” tanloviga



MA'RIFIY JASORAT NAMUNASI

Jadidchilik harakati XIX asr oxirida O'rta Osiyoda, jumladan hozirgi O'zbekiston hududida vujudga kelgan ijtimoiy-ma'rifiy oqim sifatida paydo bo'ldi. Bu harakatning shakllanishiga bir necha omillar sabab bo'ldi. Eng muhim sabab o'lkadagi ta'lim tizimining qoniqarsiz holati va savodxonlikning past darajasi edi. Mustamlaka siyosati ostidagi mavjud maktablar son jihatidan ko'p bo'lsa-da, ularning sifati zamon talablariga mutlaqo javob bermasdi.

Jadidlar ushbu tarixiy muammoni chuqur anglab, millat taraqqiyoti uchun ma'rifat eng asosiy vosita ekanini ilgari surdi. Ular erkin fikr, zamonaviy fanlar, ilg'or pedagogik usullar asosida xalqni uyg'otishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'ydi. Bu – ma'naviy jasorat va xalq oldidagi katta mas'uliyat ifodasi edi.

Jadidlarning faoliyati, eng avvalo, xalqni ilm-ma'rifat bilan qurollantirish, jaholatdan qutqarish va tafakkur uyg'otishga qaratilgandi. Ular bosib o'tgan yo'l – bu nafaqat ta'lim islohotlari, balki ma'naviy qahramonlik namunasi sifatida tarixda muhrlanib qoldi. Mustamlaka tuzumi sharoitida erkin fikr yuritish, yangicha yondashuvlarni joriy etish, zamonaviy g'oyalarni ommaga yetkazish har doim ham oson bo'lmagan. Jadidlar ayni shu qiyinchiliklarga qaramay, o'z hayotini xavf ostiga qo'ygan holda, ma'rifat uchun kurash olib bordi.

Ularning asosiy maqsadi – xalq orasida savodxonlikni oshirish, diniy-ma'naviy tafakkurni uyg'unlashtirish, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini o'zlashtirish edi. Jadidlar yangi usuldagi maktablarni tashkil etib, ta'lim tizimiga mutlaqo yangi, ilg'or pedagogik metodlarni joriy etdi. Bu maktablarda diniy ta'lim bilan bir qatorda matematika, geografiya, tibbiyot, tarix, rus tili kabi dunyoviy fanlar ham o'qitila boshladi.

Ular dars berishda ko'rgazmali vositalardan: xarita, jadval, darsliklar va amaliy mashg'ulotlardan foydalanishni yo'lga qo'ydi. O'qituvchilarning malakasini oshirishga e'tibor qaratdi, bu orqali ta'limning sifat jihatidan yuksalishini ta'minlashga harakat qildi. Jadidlar o'quvchilarni mustaqil fikrlovchi, faol va zamonaviy shaxs sifatida tarbiyalash g'oyasini ilgari surdi.

Bu esa ularning pedagogik qarashlarida qanday zamonaviy yondashuvlar mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Jadidlarning yana bir ma'naviy jasorati ayollar ta'limi borasidagi qat'iy pozitsiyasidir. Ular diniy mafkura va ijtimoiy cheklovlar ta'sirida ilm olish huquqidan mahrum bo'lgan xotin-qizlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Turkistonning ko'plab shaharlari va qishloqlarida qizlar uchun maktablar ochildi. Bu esa ayollar orasida savodxonlik darajasining oshishiga, ularning jamiyatdagi o'rni mustahkamlanishiga xizmat qildi.

Jadidlar faqat ta'lim sohasida emas, balki adabiyot, matbuot, sahna san'ati va ijtimoiy fikr maydonida ham faol ishtirok etdi. Ular tomonidan chiqarilgan gazeta va jurnallar, yozilgan darslik va risolalar, sahnalashtirilgan spektakllar orqali xalqni uyg'otishga intildi. Ularning bu boradagi fidoyiligi va jasorati og'ir sharoitlarga qaramay, el-yurt farovonligi uchun astoydil xizmat qilishda yaqqol ko'rinadi.

Jadidlarning tarixiy faoliyati va ma'naviy merosi bugungi O'zbekiston taraqqiyotida chuqur iz qoldirgan. Hozirgi kunda mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, zamonaviy pedagogik yondashuvlarning joriy etilishi, ma'naviyat va axloqiy tarbiya masalalariga berilayotgan e'tibor bevosita jadidchilik g'oyalari bilan uyg'unlashadi. Zero bu harakatning tub mohiyatida insonni yetuk qilib tarbiyalash, savodli jamiyatni shakllantirish, ma'rifat orqali taraqqiyot sari intilish tamoyillari yotadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti jadidlar merosini milliy tiklanish jarayonida alohida o'rin tutuvchi qadriyat sifatida ta'rifi kelmoqda. Jumladan, 2020-yil 30-oktabr kuni ta'lim va tarbiya masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda davlat rahbari Abdulla Avloniy merosiga

alohida to'xtaldi. U Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarini bugungi axloqiy, tarbiyaviy va ma'naviy ishlanmalar uchun asosiy manba sifatida qayta baholash lozimligini ta'kidladi. Bu asar orqali Avloniy nafaqat axloqiy me'yorlarni ilgari surgan, balki milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani tiklash va zamonaviy tafakkur bilan uyg'unlashuv tamoyillarini shakllantirgan edi.

Bugungi ta'limda axloqiy tarbiya, milliy g'urur, tarixiy xotirani asrash, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalash, xotin-qizlarning bilim olish huquqini ta'minlash kabi yo'nalishlar aynan jadidchilik asoslaridan ilhomlanmoqda. Shu jihatdan jadidlar nafaqat o'z davrining ilg'or islohotchilaridir, balki bugungi ma'naviy taraqqiyotimizning poydevorini qo'ygan fidoyilardir.

Ayni paytda yangi avlod maktablari, pedagoglar malakasini oshirish dasturlari va o'quv rejalari – bularning barchasida jadidlarning o'z vaqtida ko'tarib chiqqan muammo, yechim va yondashuvlar zamonaviy ruhda davom ettirilmoqda.

Jadidchilik harakati O'zbekiston tarixida beqiyos iz qoldirgan, millatni ma'rifat orqali yuksaltirishga qaratilgan buyuk harakatdir. Jadidlar nafaqat zamonaviy ta'lim asoslarini yaratgan, balki xalqni o'zligini anglash, milliy g'urur va erkin tafakkurga chorlagan ma'naviy qahramonlar edi. Ular tomonidan amalga oshirilgan islohotlar, pedagogik yondashuvlar, matbuot, adabiyot va ayollar ta'limiga oid tashabbuslar nafaqat o'z davrida, balki bugungi kunning dolzarb masalalari bilan ham uyg'unlashib ketgan.

Hozirgi O'zbekiston taraqqiyotida, ta'lim va tarbiya sohasida erishilayotgan yutuqlar, zamonaviy maktablar, yangilangan o'quv dasturlari, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar – bularning barchasi jadidlar tashlab ketgan ma'rifat poydevoriga tayanadi.

Shunday qilib, jadidlarning ma'naviy qahramonligi – bu xalqni ilm, tafakkur, erkinlik va taraqqiyot sari yetaklagan ma'rifiy jasorat namunasi bo'lib, u har bir o'zbekistonlikning ma'naviy xotirasida abadiy yashaydi.

Sanjar AHMEDOV,
Oriental universiteti
dotsenti v.b.,
tarix fanlari bo'yicha falsafa
doktori.
Kichik serjant
Abbosxon SAFARALIYEV



Qahramonlar nomi barhayot



Har gal bu iborani tilga olganimda qalbimni ajib his chulg'ab oladi. Go'yoki ko'nglimning tubida shukronalik, minnatdorlik tuyg'usi bosh ko'taradi.

“Osmonimiz musaffo” – bu shunchaki so'z emas. Balki bu so'z – ona yurtning ozodligi uchun osmonga tikilgan iltijoli nigohlarga ijobat sifatida yuraklar ostida qad ko'targandir? Balki bu so'z zamirida minglab jasoratlar, fidokorliklar bordir? Bilganim, bu so'zlarda ona yurtini yovdan, xavfdan mardonavor himoya qilgan jasur o'g'lonlarning issiq nafasi, Vatanga bo'lgan muhabbati bilan qorishiq ko'z yoshlari bor. Shu bois bu so'z zalvarini Vatanni jon qadar sevgan fidoyilar qalban anglay oladi.

Hozir bu so'zning tarixini izlayversam, Odam Atoga borib taqalishi mumkin. Men esa **shu mustaqil Vatan tinchligi, osmonining musaffoligi uchun jon bergan bir qahramon yigit hayoti misolida fikrimni davom ettiraman.**

Yozning tafti so'nib, o'rnini kuzning mayin shamollariga tuhfa etgan mahal. Yomg'irning shivirlab yog'ishi yaproqlarning badanini qitiqlab, o'zini qo'yarga joy topolmay, titrayotgan bir oqshom olis Marg'ilon diyorida bir bola dunyoga keladi. O'sha kuni osmon go'yo bir yulduzini yerga bergandek, tun bo'yi yig'ladi. Bu yomg'irlarni rahmat tomchilari ham deyish mumkin edi. Har nima bo'lganda ham, Vatan uchun jonini ayamaydigan qahramon yigit dunyoga keldi.

BOBUR G'ANIYEV tabiatan kamgap, aytgan so'zining ustidan chiqadigan, birso'zli yigit edi. Bu yoshgina bolaning xatti-harakatlari hammani lol qoldirardi. Bo'sh vaqlarini hamma bolalar singari o'yin-qaroqlik bilan o'tkazmasdi, qo'lidan kitoblarni qo'ymasdi. Jismoniy chiniqqan, sochlari silliq, ko'zlari katta-katta bu yigitcha butun qishloq ko'nglidan birdek joy olgandi.

U maktabni tamomlagach, Marg'ilon tijorat texnikumida o'qishni davom ettirdi. 2000-yilda esa Toshkent elektrotexnika aloqa institutining Maxsus fakultetini tamomladi. Keyin esa harbiy sohada faoliyat olib bordi. Endi uning uchun Vatan kattalashdi, bir qishloq bo'ldi, bir shahar bo'ldi, bus-butun O'zbekiston bo'ldi. Komandirlari buyurgan biror yumushdan bosh tortmas, vazifani ortig'i bilan bajarardi.

2000-yilning avgust oyida bir guruh terrorchilar Surxondaryo viloyatining Sariosiyo va Uzun tumanlarining tog'li hududlariga bostirib kirishdi. Vatan himoyasi yo'lida jangga kirgan mard askarlarimiz qisqa vaqt ichida jangarilarga qarshi harakatlarni boshlab yubordi. Ular orasida Boburjon G'aniyev ham bor edi.

Harbiy samolyotlardan berilgan zarbalar oz vaqt ichida dushmanni sarosimaga solib qo'ydi. Hududni tozalash jarayonida guruh komandirining o'rinbosari leytenant Bobur G'aniyev berilgan vazifani hushyorlik bilan bajarar edi.

BIR KUNI u terrorchilarning pistirmasini sezib qoldi. Vaziyatga baho berib, tezkor qaror qabul qildi-da, qulay pozitsiyani egalladi.



Shu kuni jangda safdoshlari bilan bir nechta jangarini yo'q qildi.

Quyosh g'arbga botayotgan edi, o'zining nazoratida bo'lgan darani ko'z qorachig'idek asrayotgan leytenant Bobur G'aniyev va uning qo'l ostidagi askarlar har bir qoya o'ngirlarini ko'zdan kechira boshladi. Tun cho'kib, sokinlik yurakni g'ashlab borardi. Bir payt qoyalar orasiga pistirma qo'ygan dushman g'alamislari harbiylarimiz tomon o'q ota boshladi. Sokinlik buzildi, dushman nishoniga g'ov bo'lgan leytenant yaralandi, ammo taslim bo'lgani yo'q. Oyog'iga kelib tekkan o'qdan sizayotgan qonga ham zarracha e'tibor bermay, harakatni davom ettirdi. G'alamislarga qarshi mardona bordi. Qurolsoshlariga xavfsiz yerga o'tishini buyurib, o'zi jangarilarga qarshi yolg'iz kurashdi. Do'stlari Boburjonning yoniga borishga qancha urinmasin, qarshilik qildi. U tungi ikkigacha terrorchilarga qarshi yolg'iz jang olib bordi...

TUN MOTAM LIBOSINI KIYDI, yulduzlar go'yo yerdagi jon-jigaridan ayrilgandek xomush boqardi. Hamma yig'ladi. Axir Boburjon endi yo'q edi! Uni jang maydonidan olib chiqishganida vujudining sakkiz joyidan o'q kelib tekkaniga guvoh bo'ldilar...

Boburjon G'aniyev Vatan tinchligi yo'lida mardlarcha jon berdi. Har gal shu jasur yigitlar haqida nimadir qoralar ekanman, yuragimni hovuchlab turgandek bo'laveraman. Onam ko'z oldimga keladi. Ikki kun qo'ng'iroq qilmasam, xavotirlanib ko'nglidan ming xayollar o'tkazib, yig'lashga tushadigan munis onam! Bu yigitlarning onalari-chi?! Aslida ularga ham qahramon farzandining dog'ini ko'tarish osonmas. Lekin ular boshlarini tik tutib, **“Vatanimga xizmat qilaman!”** deya qasamyod qilayotgan askarlardek mag'rur bo'lishdi, doim. Asli bu mo'tabar insonlar Vatanini har nedan ustun qo'ya olgan qahramonlardir!

Hozir men sizga so'zlab bergan qahramonning volidasi ham xuddi shu onalar sirasidan. Farzandining yodini abadiylashtirish uchun Bobur G'aniyev yashagan xonadonda uy muzeyi tashkil qilgan.

– Har tong o'g'limning xonasiga kirib, kiyimlarini tartiblayman, suratlariga termilib biroz o'tiraman, xayolan suhbat quraman. Boburjonim xuddi yonimda turgandek meni eshitayotgandek tuyulaveradi. Bolamning maktublarini o'qiyman, ruhini his qilaman, – deydi onaxon ma'yus jilmayib.

Bobur G'aniyev uy muzeyiga razm solganimda birorta gardga ko'zim tushmadi, onaxon har bir detalgacha e'tibor berib, asrab-avaylab kelmoqda. Millatning shunday ayollari bor, bu yurtning farzandlarini yovlar hech qachon boshini egolmaydi. Yurtning quyoshi porloq, osmoni musaffo bo'laveradi.

OSMONIMIZ MUSAFFO degan so'z haqida yana biroz gapirmoqchiman, balki bu so'zni farzandining ruhini osmonga kuzatgan va unga termilgancha yig'layotgan onalar aytgandir. “Osmonimiz musaffo, yurtimiz tinch!” Bu so'zlarni og'iz to'ldirib aytgunimizcha bo'lgan paytlar haqida hech o'ylab ko'rganmisiz? Osmon tozarib olgunga qadar o'tgan har daqiqa yillarga teng bo'lmaganmi, axir? Umrining so'nggi lahzalarini yashayotgan odam musaffo osmon ostiga olib chiqishini so'raganini ham ko'p bor eshitganmiz. Balki o'sha kezlarda insonlarga ko'rinmas hodisalar kasb etar, bu osmon. Yana bilmadim. Har ne bo'lganda ham, osmonimiz musaffo, yurtimiz tinch bo'laversin!

Muhammadali G'AFFOROV,
“Vatanparvar”

“Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo!” deymiz faxr bilan.

Ammo hech o'ylab ko'rdikmi, bu musaffolik, bu osoyishtalik bizga qanday qiymat va to'lov evaziga nasib bo'lgan? Asli bu ibora qachon paydo bo'ldi? Doim xayolimning bir chetida shu savol ingraydi. Kim aytgan ilk bor bu so'zni? Kimning yurak qonidan to'kilgan misralar bu?

MUSAFFO”

“OSMONIMIZ



Shonli umr



“URUSH KO‘RMAGAN AVLODMAN”

Men urush haqida faqat asarlarda o‘qidim, filmlarda tomosha qildim. Qolaversa, o‘sha dahshatlar ichida ulg‘aygan, qon kechgan va tinchlik yo‘lida jon olganlarning hikoyalarini tinglab, kamolga yetdim. Bizdan keyingilar ham ana shu zayl ulg‘aysin. Momolarimiz alamdanda kuylagan qo‘shiqlar, bobolarimiz tortgan azob-uqubatlar hali-hamon qalblarimizni tirnaydi.

Darvoqe, Erix Mariya Remarkning “G‘arbiy frontda o‘zgarish yo‘q” asarini o‘qiganmisiz? Yoki Ernest Xemingueyning “Alvido qurol”ini-chi? Men bu kitoblarni juda ko‘p mutolaa qilganman. Urushning insoniyat boshiga solgan og‘ir judoligi, butun boshli avlodlarni tamoman yo‘qlikka giriftor bo‘lib ketganini, olovli to‘qnashuvlar ichida yo‘q bo‘lgan orzular... bu haqda o‘ylash, gapirish naqadar og‘ir? Urush hech qachon yaxshilik olib kelmasligini tarix insoniyatga ko‘rsatdi. Biroq bundan hamma ham birdek xulosa chiqarmas ekan-da...

Shoshmang, men kitob haqida gapirmoqchi emasman. Aksincha, o‘sha manzaralarni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rgan, shafqatsizliklarga shaxsan guvoh bo‘lgan, azoblarni tanasida his etgan va qalbida uzoq yillik og‘riqlarni ko‘tarib yashab kelayotgan Pavel Materikov va Fyodor Fedinning hayotidan bir parchani keltirmoqchiman xolos.

Poytaxtimizning Yashnobod tumanida istiqomat qilib kelayotgan bu faxriylar yuz bilan yuzlashish arafasida. Ular ikki asrni ko‘rdi. Qiyinchiliklarni matonat bilan yengib o‘tgan. Vatanim, xalqim deb qayg‘urib yashadi.

– Askarlarni ko‘rsam, qalbim hamisha ravshan tortadi, – dedi Pavel Materikov. – Nurlari kamaygan ko‘zlarim yana ham ravshanlashadi. Bu tushuniksiz tuyg‘u. Shu kasbga ko‘rinmas ip bilan qattiq bog‘langanmiz. Va uni hech qanday kuch uzolmaydi. Bu qo‘llar tinchlikni

istab, qancha qalblarga malham, yovuzlarga esa jazo bermadi deysiz. Endi hammasi ortda qolgan. Ammo u kunlardan orttirgan chandiqlarimiz haligacha bitmadi. U kunlarni biz ko‘rdik, sizni hech guvoh qilmasin.

Otaxonni zimdan kuzataman. Jussasi kichiklashgan. Peshonada tortilgan ajinlar chuqur va uzun-uzun. Lablari ingichka va tirishib qolgan. Sochlari qirov tushganiga ham ancha bo‘lgan. Biroq o‘zi juda tetik – bir ko‘rishda qariyb 100 yoshni qarshilagan insonga sira ham o‘xshatmaysiz. Ikkinchi jahon urushiga olib ketilganida 18 yoshda bo‘lgan. Ayni kuchga to‘lgan, biroq qalbi qotmagan, dunyoni rangin ko‘rar pallada dahshatlar ichiga ulotirilgan. Shafqatsiz kurashlar uning jasoratli bo‘lishiga xizmat qildi.

Ko‘ksidagi shoda-shoda medallarga ko‘z tashlayman. Ular otaxonning qahramonliklaridan so‘zlaydi.

– O‘qlar ovozi, hatto tunlari ham tinmasdi, – deya so‘zida davom etdi Ikkinchi jahon urushi faxriysi. – Yaqin do‘stlarimizning jon berishiga ham guvoh bo‘ldik. To‘g‘ri, ular uchun qasos olindi. Dushmanni tormor etdik. Biroq yo‘qotganlarimiz qaytmadi. Ba‘zida shu haqda o‘ylab, biroz mahzun bo‘laman. Shukrki, shum kunlardan so‘ng to‘kin hayotga yetib keldik. Bugun e‘tibor va e‘tirofdamiz.

Aka, men qishloqda katta bo‘ldim. Bilasiz, shaharda bo‘layotgan dov-daraxtlarni kesa-kes u yerlarga halicha yetib borgan yo‘q. Bormasin

ham. Xullas, ana shu joylarga erta bahordan qushlar uchib kelib, uya quradi. Tuxum qo‘yadi. Bolalarini katta qiladi. Ammo bechoralarning polaponlariga ko‘z tikkan ilonlar ham bor, ular o‘sha uyalarga ko‘z olaytiradi, osoyishtaligiga raxna soladi. Bu manzaraga hech guvoh bo‘lganmisiz? Ko‘rmaganingiz ham yaxshi, aslida. Chunki mushtdek keladigan qushchalar “chir-chir” qilib, u shoxdan, bu shoxga qo‘nib, ilonga qarshilik ko‘rsatadi. Hatto ayrimlari shu joyda uyasini himoya qilish vaqtida dushmanga yem bo‘ladi. Otaxonning hikoyalarini tinglar ekanman, ana shu qushlardek yovga tik qaragan ko‘zlari tubiga borgan sari cho‘kib ketayotgandim. Hiylakor, shafqatsiz fashistning ilondek suqilib kirishiga bo‘lgan urinishiga javoban ota-bobolarimiz qo‘llariga qurol olgan.

Ana shu xayollar bilan otaxonning hovlisidan darvoza xatlab, tashqariga – ko‘chaga chiqsam, biz bilan birga kelgan harbiy xizmatchilar biroz ko‘rimsiz holga kelib qolgan yerga ishlov berib, keraksiz o‘tlardan tozalab, obod qilib qo‘yibdi. Dilim ravshan tortdi. Bunday qahramonlarning uyi atrofi hamisha ozoda turmog‘i kerak, dedim ichimda. Ammo shu ko‘chadan har lahzada o‘nlab o‘tib-qaytayotgan mahalladoshlarning bu narsalarga beparvoligidan qattiq ranjidim.

– Har bir inson uchun yurt tinchligi bebaho ne‘mat, ulug‘ saodatdir, – deydi polkovnik Valijon Dadajonov. – Bashariyat o‘z taraqqiyotining barcha bosqichlarida, avvalo, tinchlik va osoyishtalikka intilib kelgan. Bu yo‘lda fidoyilik ko‘rsatganlarni e‘zozlash, ularni yo‘qlab, pand-nasihatlariga quloq tutish esa barchamizning insoniy burchimizdir. Bugun yo‘qlagan insonlarimiz biz uchun tirik tarix. Ularning hikoyalarini eshitib, yoshlarimiz vatanparvar bo‘lib ulg‘ayadi. Bugunidan rozi bo‘lib, ertangi kunga intilib yashashga odatlanadi. Mudofaa vazirligidagi har bir harbiy xizmatchi yil davomida

faxriylarimiz holidan xabar olib, ularga ko‘makdosh bo‘ladi. Chunki bu bizning burchimiz.

Ha, ozodlik, xalqning erki, qadr-qimmat, or-nomusini himoya qilishda, dushmanga qarshi mashaqqatli kurashlarda bukilmash iroda va jasorat ko‘rsatgan insonlar hamisha el-yurt ardog‘ida.

– Urushni qo‘ying, uni biz ko‘rdik, – deydi Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Fyodor Fedin. – Siz bugun bilan yashang! Ertangi kun uchun qayg‘uring! Yuksalish va rivojlanish xususida bosh qotiring! O‘qing, o‘rganing va intiling! Chunki o‘sha xatolar boshqa takrorlanmasligi kerak. Buning uchun hammamiz – yosh-u qari birdek mas‘ulmiz. Ocharchilik va qahatchilik, beshiklarda faryod solib yig‘lagan chaqaloqlar, yoridan erta ayrilgan kelinchaklar, bolalarini qaro yerga bergan ota-onalarning oh-u nolalari, allaqachon Yaratganga borib yetgan. Dushman esa mag‘lub bo‘lgan, jazosini olgan. Qarang, yurtimiz har lahzada rivojlanyapti. Kecha o‘tgan ko‘changizdan bugun yursangiz, tamoman o‘zgarganiga guvoh bo‘lasiz. Bu nimadan darak beradi? Hamma narsa o‘z bahosini topayotganidan, adolat borligidan xabar beradi.

Faxriylar bilan suhbatlarda Vatan sarhadlari, uning har bir go‘shasini sevib ardoqlash, asrash, bir so‘z bilan aytganda, yurtiga sadoqat bilan xizmat qilish er yigitning burchi ekani xususida ham so‘zlashdik.

Aytgancha, yuqorida keltirganim qushlar esingizdami? Ular mittigina yurak sohibi bo‘lsalar-da, dushmanlari har qancha vahimali bo‘lishiga qaramay, sira qo‘rqmaydi. Aksincha, tik qarab, ko‘zlarini o‘yadi, boshlarini majaqlashga harakat qiladi. Bolasini va maskanini himoya qiladi-da.

Xo‘sh, siz-u biz-chi, shunga qodirmizmi? Unda yagona uyimiz – O‘zbekistonimizdagi tinchlik va totuvlikni asraylik!

Kapitan Shohrux SAIDOV,
“Vatanparvar”

Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi!

O'SKAN OTA IBRATI

Vatan mustaqilligi va ozodligi yo'lida ko'rsatilgan mardlik va jasorat bebaho qahramonlik sanaladi. Bunday umr mangulikka yo'g'rib, xalq qalbida yashayveradi.



Sirdaryolik 99 yoshli otaxon O'skan Hojimanov ham ana shunday e'zoz-u hurmatda umrguzaronlik qilayotgan pir-u badavlat otaxonlardan biridir. Asli Jizzax viloyatining Zomin tumanidagi Achchi qishlog'ida tug'ilgan otaxon taqdir taqozosi bilan Sirdaryo viloyatining Boyovut tumani "Hosilobod" mahalla fuqarolar yig'ini Chiroy ko'chasida qo'nim topib, shu yerda yashab qoladi.

O'sha davrlardagi talato'plar ko'plab o'zbek yigitlari qatorida O'skan otani ham urush maydonlariga tortadi. 1944-yilning noyabr oyida urushga otlangan navqiron yigit oradan sal o'tib, 2-Belarus fronti 321-o'qchi polki janglarida ishtirok etdi. 1946-yili uch oy davomida 27-sonli Markaziy harbiy bazasida o'qchi vazifasida xizmat qildi. Nihoyat qonli urush barham topdi. O'skan bobo 1950-yilda yorug' yuz bilan uyiga qaytib keldi. Shundan so'ng 1986-yilga qadar Boyovut tumanidagi

Hosilobod mahallasida, ya'ni o'sha davrlarda Usmon Yusupov nomi bilan atalgan kolxozda mashina-traktor parkida haydovchi bo'lib ishladi.

Otaxon bilan suhbatlashsangiz, albatta bugungi dorilamon kunlarning qadriga yetish, yurt tinchligi va osoyishtaligi hamma narsadan ustunligi hamda hozirgi zamon yoshlari eng baxtli insonlar ekani haqida ko'p gapiradi. Haqiqatan ham shunday. Tinchlik hukm surgan joyda rivojlanish, taraqqiyot bo'ladi. Bugungi kunda O'skan ota 4 o'g'il va 3 nafar qizining e'zozida, qolaversa, bir etak nabira, chevare va evaralari qurshovida baxtli hayot kechirmoqda. Farzandlari mahallada obro'-e'tiborga sazovor insonlardan bo'lib, yurtimiz ravnaqi yo'lida munosib mehnat qilib kelyapti.

Xalqimizning Vatan himoyasi yo'lidagi yuksak mardlik hamda qahramonliklari barcha avlodlar

uchun haqiqiy ibrat maktabi vazifasini bajaradi. Xuddi shunday O'skan ota ham sirdaryolik yoshlarga chin ma'nodagi vatanparvarlik timsoli, yurtga sadoqat namunasi, desak mubolag'a emas.

Bugun otaxon mahalladagi, tuman miqyosidagi tadbirlarda ishtirok etib, yoshlarga pand-u nasihatlarini ayamaydi. Mahalla obodligi yo'lidagi ishlarda hali-hamon tetik. Bu hali hammasi emas. O'skan ota Hojimanov ko'p yillar davomida o'zi istiqomat qilib kelayotgan "Hosilobod" mahalla fuqarolar yig'inining faxriylar kengashi a'zosi sifatida barcha tadbirlarda faol ishtirok etib kelgan. Mahalla ko'chalarini obodonlashtirish, oilalarda ma'naviy-axloqiy muhitni shakllantirish, nizoli oilalarni yarashtirish, umuman, mahallada sog'lom ma'naviy muhitni qaror toptirish borasidagi ishlarga munosib hissa qo'shib kelayotgani yoshlarga ibrat, albatta.

Shu o'rinda bir mulohaza: insonga har kuni tinchlik-osoyishtalik va xotirjamlik kerak. Tinchligini yo'qotgan xonadon ham, mamlakat ham aslo xotirjam bo'la olmaydi. Tinchlik – taraqqiyot garovi. Biz azal-azaldan tinchliksevar xalqmiz. Aynan shu g'oya targ'ibiga bag'ishlangan buyuk milliy ma'naviy merosimiz bor. Ularning barchasida tinchlikning qadriga yetish targ'ib etiladi, urush esa batamom qoralanadi.

Bugun oramizda qanchadan qancha urush qatnashchilari, front ortida mashaqqat chekkanlar bor. O'tganlarni xotirlash, O'skan ota singari safimizda yurganlarning qadriga yetish esa oliy qadriyat va muqaddas burchimizdir.

Yulduz XOLBOYEVA,
Toshkent harbiy okrugi
matbuot xizmati
bosh mutaxassisi

Saxovat

Dunyodagi eng ulkan qahramonlik – Vatan mustaqilligi va ozodligi yo'lida ko'rsatilgan mardlik va jasorat. Bunday qahramonlik aslo unutilmaydi, hamisha xalq qalbida yashayveradi.



BIR ASRGA TENG

Qoraqalpog'iston xalqi urush boshlanganida birinchilardan bo'lib frontga otlandi. 4 932 ta ot va 1 419 dona avtomashina frontga yuborildi. 1943-yil 21-sentabrda esa frontga yo'llanma olganlarning soni 43 636 nafarni tashkil etgan.

Nukus shahridagi Qo'ng'iro't ko'chasi 6-uyda istiqomat qilib kelayotgan Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Qodirboy ota Normanov bu yil bir asrga tenglashadi. 9-may – Xotira va qadrlash kuni bayrami arafasida Qodirboy otaning uyida har yili o'zgacha tayyorgarlik ko'riladi.

Bu safar ham bayram arafasida mehmonlarning keti uzilmayapti. Mehnat jamoalari, davlat idoralari, jamoat tashkilotlari, yoshlar va Qurolli Kuchlar vakillari otaxonning holidan xabar olish, fashizm ustidan qozonilgan g'alabaga qo'shgan hissasi

uchun minnatdorlik bildirish, moddiy va ma'naviy ko'mak berish uchun Qodirboy otaning uyida mehmon bo'lmoqda.

Shimoli-g'arbiy harbiy
okrug matbuot xizmati

O'ZBEK HARBIY BOSHQARUVI

Somoniylar davrida

O'zbek davlatchiligi tarixida muhim o'rin tutgan sulolalardan sanalmish Somoniylar hukmronligi davri (892–1005) siyosiy boshqaruv tizimi o'z ilg'orligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, davlatimizni Nasr boshqargan pallada (914–943) kishilik tarixida yangilik hisoblanmish markazlashtirilgan boshqaruv tizimi joriy etilgan.

Bu tizim asosini oliy dargoh va devonlar (*vazirliklar*) majmui tashkil etgan. Ular to'laonli faoliyat ko'rsatishlari uchun Nasr buyrug'iga ko'ra, poytaxt Buxorodagi Registonda oliy hukmdor va o'nta vazir uchun alohida-alohida binolar qurilgan edi.

Devonlar, ya'ni hukumat tizimi quyidagicha bo'lgan:

1. **Bosh vazir devoni** – butun ijroiya hokimiyat, jumladan to'qqiz devon – vazirlik ustidan nazoratni amalga oshirgan.

2. **Moliya (kirim-chiqim) ishlari devoni** – davlatning moliyaviy ishlari, sarf-xarajatlariga oid hisob-kitob ishlari bilan shug'ullangan.

3. **Davlat rasmiy hujjatlarini ishlab chiqish devoni** – asosan davlat ahamiyatiga molik hujjatlar, diplomatik tadbirlarni tayyorlash, amalga oshirish kabi vazifalarni bajargan.

4. **Soqchilar boshlig'i devoni** – maxsus saralangan harbiy qismlarga boshchilik qilib, ularning tayyorgarligi, tartib-intizomi, oziq-ovqati, umuman, xo'jalik ta'minoti, maoshi masalalariga mas'ul edi. Masalan, maosh bir yilda uch-to'rt oyda bir to'lab turilgan.

5. **Xat-xabar mutasaddisi devoni** – dargoh, hukumat, mahalliy hokimiyat bilan bog'liq xabardorlik ishlari bilan mashg'ul bo'lib, poytaxtda qabul qilingan muhim qarorlar, hujjatlar va boshqa rasmiy ko'rsatmalarni viloyatlar, shaharlarga yetkazish hamda joylardan shunday ma'lumotlarni olish ishlariga javob bergan.

6. **Saroy boshqaruvchisi devoniga** – dargoh ta'minoti bilan bog'liq sarf-xarajatlar ustidan nazorat olib borish yuklatilgan.

7. **Davlat mulklari devoni** – hukmdor sulolaga tegishli mol-mulk boshqaruvi, nazorati, hisob-kitobi bilan shug'ullangan.

8. **Muhtasib devoni** – xizmatchilari qiladigan asosiy ish shahar va qishloqlarda, ko'cha va bozorlarda tartibni nazorat qilish, diniy marosimlarni amalga oshirishda chegaradan chiqmaslikni

ta'minlash, savdo-sotiq ishlarida xaridorlarga xiyonat qilmaslik, mahsulotlarning sifatiga qat'iy ko'rsatilgan darajada tutishni tekshirish, narx-navoni belgilangan miqdordan oshirmaslikni nazorat qilishdan iborat bo'lgan.

9. **Vaqflar devoni** – turli yo'llar bilan diniy muassasalar ixtiyoriga o'tkazilgan mol-mulk, yer-suv ishlari boshqaruvi va nazorati bilan shug'ullangan.

10. **Qozilik ishlari devoniga** – qozilarning faoliyatini nazorat qilish, umuman, adliya ishlari yuklatilgan.

Mazkur devonlarning joylarda ham bo'limlari bor edi. Ular markazdagi o'z devonlaridan tashqari mahalliy hokimlarga ham bo'ysunib, mahalliy boshqaruv idoralari bilan hamkorlikda faoliyat ko'rsatgan. Bundan xat-xabarlar xizmati devoni mustasno hisoblanib, ularning mahalliy bo'limlari faqat poytaxtgagina hisobot bergan xolos. Zero yuqorida aytilganidek, ular mahalliy hokimlar, mansabdorlar ustidan ham pinhona nazorat olib borgan.

Soqchilar boshlig'i devoni – harbiy vazirlik yuqorida urg'ulangan vazifalaridan tashqari bozorlar, ko'chalar va jamoat binolaridagi tartibni nazorat qilgan. Uning rahbari bosh vazirga emas, balki to'g'ridan to'g'ri amirga bo'ysungan va shaharning barcha xavfsizlik kuchlarini boshqarish vakolatiga ega bo'lgan.

Bu davrdagi yana bir muhim harbiy lavozim qo'shin boshlig'i sanalib, ma'lum bir hududning Qurolli Kuchlariga rahbarlik vazifasini bajargan. Odatda, bu lavozim majburiyatlari hudud voliysi (*hokim*)ga birlashtirilgan.

Somoniylar davrida milliy qo'shinimiz uch asosiy turdan iborat edi:

– davlatning asosiy harbiy kuchini tashkil etgan va jangovar harakatlarda muhim rol o'ynagan **otliqlar**;

– qattiq intizom va maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan **piyodalar**;

– hukmdor nazorati ostida faoliyat yuritgan, hozirgi tushunchada Milliy gvardiyaga to'g'ri keladigan maxsus harbiy qism – **g'ulomlar guruhi**.

Asosan turklardan saralab olingan g'ulomlar guruhi oliy hukmdorning eng ishonchli kuchi hisoblanib, saroydagi yuqori lavozimlarni egallash va mustaqil hududlarni boshqarish imkoniyatiga ega edi. Somoniylar davrida davlatimiz barqarorligini mustahkam tutishda mazkur tuzilmaning o'rni katta bo'lgan.

Yollanma askarlardan iborat muntazam qo'shin tuzishga qaratilgan ilk urinish Ismoil (892 – 907) davrida boshlangan. Uning tarkibi asosan turkiy g'ulomlardan iborat bo'lib, ular maxsus harbiy tayyorgarlikdan o'tgan va o'ziga xos jangovar bilim va ko'nikmalarga ega edi. Har bir askar xizmati davomida qat'iy va tizimli tarzda belgilangan bosqichlardan o'tishi kerak edi. Chunonchi, **birinchi yili** askar zandanachi matosidan tikilgan kiyim kiyib, piyoda sifatida xizmat qilgan. **Ikkinchi yili** unga ot, oddiy yugan va kamar, **uchinchi yili** esa beliga taqib yuradigan qorajur qilichi berilgan. Faqat **beshinchi yildagina** unga yaxshi egar, yulduz belgisi yugan, doroyi matosidan tikilgan kiyim, gurzi loyiq ko'rilgan. **Oltinchi yili** qimmatbaho kiyim taqdim etilib, agar o'tgan yillar ichida namunalik xizmat qilib kelgan bo'lsa, **yettinchi yili** unga o'n olti qoziqli bosh-oyoq chodir, guli kumush ipdan tikilgan namat bosh kiyim, visoqboshi unvoni va uchta g'ulom beriladi.

Xizmat davomida yuksak intizom va qobiliyat ko'rsatgan g'ulomlar asta-sekin yuqori martabalarga ega bo'lib borgan. Ular **xaylboshi** (*otliqlar boshlig'i*) va **hojib** kabi lavozimlarga tayinlanib, davlat boshqaruvida ham faol ishtirok etgan.

Urush maydonida qo'shinning joylashuvi hamda qo'llangan harbiy usullar bo'yicha ham qiziqarli ma'lumotlar bor. Masalan, qo'shinning oldingi saf, orqa saf, ikki qanot va asosiy qismdan iborat

tuzilishi **besh ustun** deyilgan. Oldingi safda dushman bilan birinchi bo'lib to'qnashuvchi, orqa safda qo'shinning orqa tomonini himoya qiluvchi, ikkita qanotda qo'shinning yon tomonlarini himoya qiluvchi, o'rtada bosh qo'shin qismlari joylashtirilgan. Ushbu besh jangovar qismdan tashqari orqa safning ikki tomonidagi qo'shimcha qismlar ham bo'lib, ular ham qanot vazifasini bajargan.

Ko'rinib turganidek, Somoniylar davrida qo'shinning yetti qisimli murakkab jangovar tuzilmasi bo'lgan. Ularning har biriga amirlar boshchilik qilgan va umumiy boshqaruvni esa oliy hukmdor olib borgan.

KARDAYS USULI otliq qo'shinlarning to'g'ridan to'g'ri hujumiga asoslangan bo'lib, unda otliqlar bir yoki bir nechta qatorga saf tortib, dushman tomon yopirilgan. Shu yo'l bilan dushman saflarini yorib o'tish, tartibsizlikni keltirib chiqarish va tezkorlik bilan zarba berishga erishgan.

Yana bir qiziq jihati shundaki, so'z ketayotgan davrda urush maydonida fillardan ham foydalangani haqida ma'lumotlar uchraydi. Ushbu holat davlatimizning o'sha kezlardagi janubiy chegaralari Hindistonga yaqinligi bilan izohlanadi albatta.

Umuman olganda, 10 yuzyillikda harbiy boshqaruv yuqori darajada yo'lga qo'yilgan bo'lib, uning ham huquqiy, ham iqtisodiy asoslari yaratilgan edi. Ushbu tajriba davlatimizni boshqargan keyingi sulolalar qo'shni davlatlar uchun ham o'ziga xos o'rnatilgan bo'lib xizmat qilganini Saljuqiylar davri atoliq davlat arbobi, bosh vazir lavozimida ishlagan Nizomulmulk (1018–1092) o'zining “Siyosatnoma” asarida alohida urg'ulab o'tgani ham bejiz emas.

Ulug'bek OLIMOV,
O'zbekiston Fanlar akademiyasi
Tarix instituti kichik
ilmiy xodimi

Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi

Jasur jangchi va mohir jurnalist



Mahammadjon o'zining uch nafar safdoshi bilan birga ko'priksidan borib, dushmanning otish nuqtasini yo'q qiladi.

Mahammadjon Abduvaliyev Yelabuga shahrida qayta tayyorgarlikdan o'tgach, leytenant unvonini olishga muvaffaq bo'ladi va Moskva ostonasida bo'ladigan janglarga o'tlanadi. O'zbekistonlik jangchi 1941-yilning 7-noyabrda Moskva shahrida tashkil etilgan paradda ham ishtirok etishga muvaffaq bo'ladi. Moskva ostonalarida kechgan qaqshatqich janglarda u og'ir yaralanib, harbiy gospiyalda davolanadi. Sog'ayib safga qaytgan jasur jangchi Stalingrad uchun olib borilgan janglarda ham ishtirok etadi.

Shu bilan birga, Brest qal'asi va boshqa ko'plab shaharlar-u qishloqlarning ozod etilishida M. Abduvaliyev o'zining yuksak jasorat namunalarini ko'rsatib, g'alaba kunini Berlinda qarshi olishga muvaffaq bo'ladi.

Mahammadjon Abduvaliyev urushdan keyin ham ko'p yillar xalq xizmatida bo'ldi. U Brest qal'asi himoyasida qatnashgan o'zbek chegarachilari haqidagi ma'lumotlarni izlab topish va ular haqida maqola va ocherklar yozish bilan shug'ullanadi.

Shunchalik serg'ayrat ediki, 70 yoshida jurnalistika yo'nalishi bo'yicha oliy ta'lim muassasasiga o'qishga kirgan. Men otam bilan faxrlanaman. O'zim ham harbiy xizmatni Brest qal'asida o'taganman. Xizmatim davomida dadam bir necha marotaba meni ko'rgani borgan. Safdoshlarim oldida mardlik, jasurlik, Vatanga bo'lgan muhabbat to'g'risida gapirib berardi. Hazillashib, men yotgan karavotda, sen ham yotibsan, derdi, – deydi farzandi Ravshanbek Abduvaliyev.

Brest qal'asi memorial kompleksining shtatdan tashqari ilmiy xodimligiga qabul qilingan Mahammadjon Abduvaliyev ushbu qal'ani himoya qilgan o'zbekistonlik jangchilarni izlab topishda va ular haqida maqolalar, ocherklar yaratishda jonbozlik ko'rsatgan. Ko'p yillik samarali jangovar-xizmat faoliyati, tashabbuskorligi, Vatan himoyasi yo'lidagi jasorati uchun u turli davrlarda ko'plab orden va medallar bilan taqdirlangan.

Vatanga qaytgach, rafiqasi To'tiniso aya bilan farzandlar va nabiralar tarbiyasida ham barchaga ibrat bo'lgan fidoyi inson 2002-yilda vafot etgan. Ravshan aka otasining odamiylik sifatleri, hamisha boshlagan ishini oxirigacha yetkazadigan qat'iyatli inson bo'lganini xotirlab, farzandlari, nabira-yu abiralariga so'zlab beradi.

Mashaqqatli, shu bilan birga mazmunli hayot yo'lini bosib o'tgan Mahammadjon Abduvaliyev va uning matonati haqidagi ma'lumotlar Toshkent shahrida joylashgan "G'alaba bog'i" yodgorlik majmuasidagi "Shon-sharaf" davlat muzeyi eksponatlari orasidan munosib joy olgan.

Zero oradan necha yillar o'tmasin, ota-bobolarimiz ko'rsatgan jasorat avlodlar qalbi va xotirasida mangu yashab, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat namunasi bo'lib qolaveradi.

Mayor Farida BOBOJONOVA
DXX Chegara qo'shinlari

Ana shunday o'g'lonlar safida Brest qal'asini mardlarcha himoya qilgan o'zbek chegarachisi Mahammadjon Abduvaliyev ham bor.

1918-yil 5-avgustda so'lim Farg'ona viloyatida tavallud topgan Mahammadjon Abduvaliyev 1939-yilda harbiy xizmatga chaqiriladi. U Brest qal'asida Harbiy qasamyod qabul qilgach, 1940-yilning kuziga qadar qal'adagi bir yillik kichik komandirlar tayyorlov kursida tahsil oladi. Xizmatini tamomlab, yurtga qaytishga tayyorgarlik ko'rayotgan Mahammadjon boshqa ko'plab o'zbekistonlik chegarachi safdoshlari qatori kutilmaganda suronli yillar girdobiga tushadi...

...1941-yil 22-iyun kuni fashistlar Sovet Ittifoqiga bostirib kiradi va asosiy zarbani g'arbiy chegaralar bo'yida

joylashgan Brest qal'asiga beradi. "Barbarossa" rejasiga ko'ra, fashistlar qal'ani egallash uchun faqat sakkiz soat vaqt ajratgan edi. Qal'a ichida joylashgan o'q-dori omborlari, suv tizimi, aloqa ta'minoti butkul izdan chiqadi. Shunga qaramay, qal'a himoyachilari hujumkor harakatlarni, mudofaa ishlarini amalga oshirishni boshlaydi.

O'z safdoshlari bilan urushning birinchi kunini qarshi olgan Mahammadjon og'ir va dahshatli janglarda ishtirok etadi. Qurol-doshlarining ko'pchiligi halok bo'lgan qahramonimizni bo'linma komandiri yoniga chaqirib, "Jabinka" degan stansiyada juda katta qurol-yarog' ombori borligini va u dushmanning qo'lga tushmasligi uchun evakuatsiya qilinishi kerakligini aytadi hamda bu vazifani aynan Mahammadjonga topshiradi.

Jangovar buyruqni olgan Mahammadjon Abduvaliyev qo'l ostidagi askari bilan manzilga yetib borib, qo'yilgan vazifani bajargach, ortga – qal'aga qaytayotgan vaqtda yo'l yopilgani va qal'a dushman tomonidan qamal qilingani sababli boshqa frontga yuboriladi. Shundan so'ng jasur chegarachi boshqa ko'plab janggohlarda jang qiladi. Ayniqsa, Smolensk yaqinidagisi juda ayovsiz kechadi. Yog'och ko'priksidan o'tayotgan jangchilar o'q yomg'iri ostida qolib ketadi.

Inson xotira bilan tirik, qadr bilan ulug'. Zero tinchlik-xotirjamlik, yorug' va musaffo osmon, osuda hayotni ta'minlash yo'lida bukilmas iroda va jasorat namunalarini ko'rsatib, jonfido qilgan mard va jasur ota-bobolarimizning qahramonliklari aslo unutilmaydi. Suronli yillarda fidoyilik namunalarini ko'rsatib, olovli janggohlardan omon qaytgan bobolarimiz hayoti barchamiz uchun ibrat namunasidir.

Uch qahramon



XOTIRA AZIZ, QADR MUQADDAS

ANVAR RAIMBEKOV

1918-yilda tug'ilgan. Ikkinchi jahon urushi boshlanish arafasida u Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq tumani, Kushek qishlog'ida yashagan. Anvar 1941-yil 20-avgustda Quyi Chirchiq tumani harbiy komissariyat bo'limi orqali harbiy xizmatga chaqirilgan.

Harbiy dala bilim yurtida ta'lim olgandan so'ng Anvarga kichik leytenant unvoni berilib, 1942-yilning oxirlarida frontga yuboriladi va 1-Bol'tiqbo'yi fronti, 39-armiya, 97-piyoda diviziyasining 136-piyoda polki vzvod komandiri etib tayinlanadi.

1943-yili Anvar Raimbekov boshchiligidagi vzvod oldiga Oryol viloyatining Bolxov tumanida joylashgan,

dushman qo'lida bo'lgan 187,4 raqamli balandlikni egallab, diviziyaning asosiy kuchlari hujumiga yo'l ochib berish vazifasi qo'yiladi. Vzvod shaxsiy tarkibi hujumga o'tib, dushman qatoriga kutilmagan vaqtda va kutilmagan joydan o't ochib, zarba beradi. Vzvod dushman pozitsiyasini egallashga muvaffaq bo'lib, jangni davom ettirgan holda uni ushlab turadi va diviziyaning asosiy kuchlarining hujumga o'tishiga yo'l ochib berib, jangovar topshiriqning to'liq bajarilishiga erishadi.

Anvar Raimbekov ushbu jangda ko'rsatgan jasorati uchun orden bilan taqdirlanadi. U 1944-yili harbiy xizmatdan bo'shatilib, uyiga qaytadi. Anvar ota xalq xo'jaligini tiklashda, frontga zarur mahsulotlarni yetkazishda, jinoyatchilikka qarshi kurashda ichki ishlar organlarida ofitserlik lavozimlarida samarali mehnat qilib, yosh avlodga to'plagan tajribasini ulashib yashadi.

ABDURAHMON MUSAYEV

1915-yilda tug'ilgan. U Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq tumani, Kushek qishlog'ida yashagan. Abdurahmon qishloqdoshi Sarbay Namozboyev bilan birgalikda Qozog'istonda maxsus o'quv bo'linmasida harbiy tayyorgarlikdan o'tgan. Ular 1941-yilning oktabr oyida frontga qo'shilib, 223-piyodalar diviziyasi, 268-piyoda polkida oddiy askar sifatida jangga kirgan.

Abdurahmon 1945-yilda g'alabaga erishilgandan so'ng uyiga qaytgan. U frontda namoyon etgan jasorati va jangovar xizmatlari uchun orden va medallar bilan taqdirlangan.

Abdurahmon Musayev urushdan keyingi yillarda qishloq xo'jaligini tiklashda faol ishtirok etib, kolxozda hisobchi, brigadir bo'lib mehnat qilgan.

YERMEKBAY NAMAZBAYEV

1908-yilda Toshkent viloyatining Quyi Chirchiq tumani, Kushek qishlog'ida tug'ilgan. 1930-yillarda kolxoz idorasida kotib va buxgalter bo'lib ishlagan. 1942-yilda harbiy xizmatga chaqirilib, Toshkentdagi harbiy qismda dastlabki harbiy tayyorgarlikni o'tagan. O'sha yili aprelda frontga yuboriladi va O'rta Osiyo harbiy okrugining 23-maxsus tog' o'q otuvchilar polkida oddiy askar sifatida janglarga kirgan.

Yermekbay dushman bilan shiddatli janglarda harbiy bo'limga yuklangan jangovar vazifalarni bajarishda faol ishtirok etib, g'alabaga o'z hissasini qo'shgan. Frontdagi jangovar xizmatlari inobatga olinib, orden va medallar bilan taqdirlangan. Uning yoshlikdan she'riyatga ixlosi kuchli bo'lib, frontda ham ijodga vaqt topib, bir qancha she'rlar yozgan.

Urushdan so'ng Y. Namazbayev nafaqaga chiqqunga qadar kolxozda chorvachilik fermasi rahbari bo'lib mehnat qilgan.

Alibek ABUYEV,
tarix fani o'qituvchisi



Keling, kitob o'qiymiz!



Ko'ngil “YO'LOVCHI”SI

Bu dunyo qancha shoirlarni ko'rmadi, deysiz. Ne-ne zotlar tovonini o'pmagan bu tuproq. Aslida shoirni millat yaratadi, ulg'aytiradi. Yer bilan yakson qilaman desa ham hech gap emas. Asl shoir esa bodroqdek baribir portlab chiqaveradi.

Usmon Nosirdan keyin yoniq yurakli ijodkorlar kam keldi, degan mish-mishlar ham yo'q emas. Bir ijodkorni boshqasiga mengzash esa doim ham to'g'ri bo'lavermaydi. Bu yurtning shoiri ko'p, jallodlari-da bisyor. Jadid bobolarimizni sotganlar ham oramizdan chiqqan. Ayni dam asrab-avaylashimiz kerak bo'lgan qancha olmoslarimiz bor. Yigitlik yoshida adabiyotga o'z otini toshga o'yib yozgandek muhrlab qo'ygan ijodkor do'stlarimiz ham talay. Biz avval o'ldirib, keyin kuyinib yig'lashni boplaymiz. Tirikligida esa doim ham qadriga yetavermaymiz. Balki, bu ham shoiming qismatiga bitilgan taqdiri azaldir.

Yuqorida Usmon Nosir haqida so'z ochgandim. Hozir sizga ijodiy parchalarini ilinmoqchi bo'lgan birodarimning ijodini o'qiganimda negadir Usmon Nosirning qaynoq ijodi ko'z oldimga kelaveradi. Kitoblarini sekin varaqlar ekansiz, tanglayingizga shirinlik tashlab qo'ygandek she'rning shirin totidan tillaringiz bollanadi.

Iftixor Xonxo'jayev, yoshi mendan ko'p katta bo'lmasa ham, akaning yozganlarini o'qib ulg'ayganman, desam, mubolag'a bo'lmaydi.

O'tgan yili esa shoirning tamoman muxlisiga aylanib qoldim. O'zbekiston

Yozuvchilar uyushmasiga yo'lim tushib, xaltamni kitoblar bilan to'ldirar ekanman, “Yo'lovchi” nomli kitobga ko'zim tushdi. Qo'limga olib qarasam, Iftixor Xonxo'jayev deb yozilgan. Quvonib ketdim, akaning bu kitobi qachon chiqqan, deb so'rasam, hozirgina nashriyotdan keldi, deyishdi. Kitobni birinchi o'qirmanlari qatoridan bo'lganimdan boshim osmonga yetdi.

Bu mo'jaz olamni sekin varaqlar ekanman, O'zbekiston xalq shoiri Iqbol Mirzoning so'zboshiga ko'zim tushdi. “Iftixor she'riyati keng ko'lamdor, uning ildizi keng. U mayda-chuyda masalalarga o'ralashmaydi, u mahalliy va boshqa qoliqlarni yorib chiqqan, o'zini buyuk ona sayyoraning o'g'loni deb biladi”, degan zalvarligina so'zlar bor ekan. She'rlarga intiqlik dardi xuruj qilib shosha-pisha so'zboshini tugatib, shoirning ko'ngil olamiga sho'ng'iymen.

“1941-yil” nomli she'ri e'tiborimni tortadi, juda og'riqli she'r. Shoir go'yo o'sha davrga tushgan, ko'zlari bilan ko'rgandek tasvirlaydi, ta'sirchan, dardli she'r. O'g'li jang maydonida jon bergan onaning ko'zyoshlari beixtiyor ko'zlariningizda aylanadi.

Xat tashuvchi har safar kechikib o'g'lidani maktub olib keladi. Faqat

bittagina maktub o'z vaqtida onaizor qo'llariga yetib keladi.

*“Onajon, o'zingni qo'lga ol faqat,
Onajon, keltirdim senga “qoraxat”.*

Lahzada xat tashuvchi va onaizorning hasratlariga guvoh bo'lib qolasiz. Keyingi she'rga o'tish esa anchayin qiyin kechadi.

Kitobni keyingi sahifasida ham shoir chinakam jang maydonini ko'z oldingizda gavdalandiradi. Insoniy tuyg'ular qanchalar muqaddas ekani haqida quloqlaringiz tagida hayqiradi. Yaralangan dushman askariga uyidan joy bergan onaning qahramonligi haqida o'qish anchayin iztirobli, dilingizni vayron qilib yuborishi tayin. Onaizor uyidan joy bergan askar sho'rlik ona o'g'lining qotili bo'lsa-chi? Kutilmagan xulosa. She'riyatda doim takrorlanib turadigan so'zlar hammaning joniga tegib ketgan. Agar shoir dushman askariga shunchaki onaning uyidan joy bersa ham bo'lardi, rahmdillik, mehribonlik tushunchalari bilan ham she'r kuchini yo'qotmasdi. Iftixor aka hammaga o'xshab she'ni tezroq tugatish haqida o'ylamaydi. U o'qirmanni yuragini qo'llari bilan g'ijimlab qolgungiga qadar kulminatsiyani ushlab boradi.

*Askar uy to'rida osig'liq turgan
Suratni ko'rdi-yu, darhol tanidi.
O'q tekkandek bo'ldi ko'ksiga birdan,
Axir bu yigitni otgan u edi.*

Hammagini tushunib yetgan onaning holini siz qanday ifodalagan bo'lardingiz. Bilaman, jim qarab turolmaysiz, shoir-chi, haqiqiy o'zbek ayolini qanchalar ulug'vor ko'rsatganini o'qib, bo'g'zimga jonim tiqilib qoldi.

*Faqat shu so'zlarni ayta oldi u:
“Bor, bolam, onang zor kutayotgandir”.*

Bir qarashda oddiy tuyuladigan bu misralarning yuki qanchalar og'ir ekanini siz ham, biz ham juda yaxshi bilamiz.

Iftixor aka shunchaki she'r yozmaydi, o'ziga talabi judayam kuchli. Boshqa ba'zi shoirlarga o'xshab uzuq-yuluq so'zlar bilan kitobxonning boshini qotirmaydi. Yo dahshatli yozadi, yo umuman yozmay qo'ya qoladi.

Mana bu she'rni o'qing:

*Xotini och edi, och edi o'g'li,
Balki, shundan egri yo'lga tushdi u.
Omadsiz hayotda – omadsiz o'g'ri,
Uch-to'rt so'm chaqa deb qo'lga tushdi u.*

Odam o'zining boshiga kelgan har qanday sinovlarga bardosh bera oladi. Lekin farzandining ko'zidan oqqan yosh oldida hamma narsaga tayyor turishini bir o'ylab ko'ring-a? Bu she'r shunchaki o'g'ri haqida bo'lganda edi, bir inson haqida bo'lganda edi, deyman ichimda. Shunday bo'lganda qo'llari chopilgan o'g'ri holiga bunchalar kuyinmagan bo'lardim. Yuqorida aytganimdek, Iftixor aka she'rda faqatgina o'g'ri qismati bilan kifoyalanmaydi. U so'zini qanday yo'l bilan bo'lsa ham aytadi, millat dardini kuylaydi, miskin dardini kuylaydi.

*Qanday guvoh bo'ldim bu holga bilmay,
Eslasam, ko'ksimda g'ashlik jo'shadi.
Endi qay tomonga yuzimni burmay,
Qo'lsiz odamlarga ko'zim tushadi.*

Shunchaki sharhlab bo'lmaydi bu misralarni, har tomonga burib ko'rishingiz mumkin. Xulosani esa shoir o'zingizga qoldirgan.

“Osonmi?” nomli she'riga yetib kelganimda esa butkul o'zimni yo'qotdim. Iftixor aka hammadek shoir emas, asl shoir. Millatning yuragidan o'tib turgan dard-u hasratlaridan xabardor shoir.

*Osonmi bolalar uyi oldidan
Jajji farzandingni yetaklab o'tish?
Yoki seni tashlab ketgan onangni
Endi kelmasligin bilsang ham kutish?*

Ha, sizning hissiyotlaringiz bilan o'ynashadi bu she'rlar. Sizning kim ekaningizni eslatib turadi bu she'rlar. Palandparvoz gaplardan xoli, chinakam shoirgagina xosdir.

Rosti, menga ham osonmas shunday she'rlar haqida nimadir deyish.

Kitobda shunchaki o'qib o'tib ketadigan she'rning o'zi yo'q. Tepada keltirilgan she'rlardan qudrati kam bo'lmagan “Og'riq”, “Erk”, “Manguberdi monologi”, “Shunday saqlanardi o'shanda nomus”, “Usmon Nosirga”, “Plan” kabi she'rlar ham bir-birini takrorlamagan holda yuksak asar bo'lgan.

Bu yozmalarimni yozar ekanman, ko'nglimdan o'tgan ba'zi kechinmalar bilan o'rtoqlashay.

Bu she'rlar haqida nimalardir yozishga hali biroz muddat bordek tuyuldi, ammo yana “yozgin” deya ichimda nimadir undab turdi. Balki, bu maktubning davomini ham bitarman, hozircha kuchim shu yergacha yetdi.

Iftixor aka, yuborgan “Yo'lovchi”ngiz ko'ngil uyimdan boshpana topdi. Va ishonamanki, har ko'ngilda o'z o'rnini topajak.

Muhammadali G'AFFOROV
“Vatanparvar”

Ma'naviy yuksalish – taraqqiyot asosi

Yangi O'zbekistonda kechayotgan ma'naviy-ma'rifiy islohotlar nafaqat mamlakatimiz taraqqiyoti, balki xalqimizning azaliy orzu va intilishlarini ro'yobga chiqarishda muhim burilish nuqtasi bo'lib xizmat qilmoqda. Ilm-fan, texnika va texnologiya, madaniyat, ta'lim va ishlab chiqarish sohalarida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar hayotimizni yangi marralarga olib chiqmoqda.



Axborotlar asrida yashar ekanmiz, jamiyat oldida turli global muammo va tahdidlar ham yuzaga kelmoqda. Ularga samarali qarshi turish uchun yuksak ma'naviyat, chuqur tafakkur va zamonaviy bilimlar asosida qurollangan avlod zarur. Shu jihatdan mamlakatimizda ma'naviy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar bugun hayot va taraqqiyot mezoniga aylanmoqda.

Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev shunday ta'kidlaydi: "Jamiyatimizning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, madaniyat sohasini rivojlantirish, ilmiy-ijodiy tashkilotlar, muhtaram ziyolilarimiz faoliyatini qo'llab-quvvatlash ham biz uchun ustuvor yo'nalishlardan biri bo'ladi. Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga

UCHINCHI RENESSANS SARI YO'L

mehr va sadoqat g'oyalarini dadil ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim".

Darhaqiqat, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar xalqimizning orzu-maqсад va intilishlarini o'zida aks ettirib, butun dunyo hamjamiyatida yuksak e'tirofga sazovor bo'lmoqda. Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansni bunyod etish g'oyasi har bir fuqaroning burchi va mas'uliyatiga aylanmoqda. Chunki ma'naviyatli va ma'rifatli inson jamiyat

taraqqiyotining asosiy tayanchi, xalq va yurt ravnaqi yo'lida fidokorona xizmat qiladigan yetakchi kuchdir.

Bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy ishlar keng jamoatchilik ongi va dunyoqarashini yuksaltirish, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish va bo'sh vaqtdan samarali foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan kompleks tadbirlar tizimi sifatida shakllanmoqda. Bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar bir qator dolzarb vazifani qamrab olgani bilan ahamiyatli. Jumladan:

mamlakatimizda ma'naviy-madaniy sohada islohotlarni yangi bosqichga olib chiqish, fuqarolarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish va milliy qadriyatlarga asoslangan o'quv dasturlarni amaliyotga tatbiq etish maqsad qilinmoqda;

fuqarolarning ma'naviy va madaniy ehtiyojlarini qondirish, xalq ijodiyoti va badiiy san'atni saqlash va rivojlantirish, havaskorlik guruhlarini hamda ijodiy jamoalar faoliyati uchun qulay shart-sharoit yaratilmoqda;

yoshlarni amaliy to'garaklarga jalb etish, xorijiy tillar va nutq madaniyatini o'rganishga yo'naltirilgan kurslarni tashkil qilish, xalq ijodiyotining barcha janrlari va nomoddiy madaniy merosni asrab-avaylab, uni kelajak avlodga yetkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda;

adabiyot va san'at arboblari ishtirokida aholi, xususan yoshlar bilan bevosita badiiy uchrashuvlar va davra suhbatlari tashkil etish orqali ularda estetik ta'lim va milliy g'urur tuyg'ularini mustahkamlashga xizmat qiladigan tadbirlar amalga oshirilmoqda;

ijodiy tanlov va festivallar uyushtirish, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash orqali mamlakatimizda ijodiy muhit yanada rivojlanmoqda;


bayramlar, xalq sayillari va milliy an'analar asosidagi keng ko'lamli madaniy-ommaviy tadbirlar o'tkazish orqali jamiyatimizda milliy qadriyatlarga sadoqat va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg'ulari kuchaytirilmoqda.

Amalga oshirilayotgan bu islohotlar jamiyatimizning ma'naviy qiyofasini yanada yuksaltirib, axloqiy tarbiyani shakllantirishda muhim o'rin tutmoqda. Shuningdek, bu jarayon Yangi O'zbekistonning Uchinchi Renessans sari dadil qadam tashlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda.

**D. BUZRUKOVA,
O. MAHMUDOVA,
Farg'ona davlat universiteti
katta o'qituvchilari**

Hamkorlik

Memorandum imzolandi



Qoraqalpog'iston Respublikasi mudofaa ishlari boshqarmasida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug hamda "Ustudy" IT ta'lim berish markazi o'rtasida Nukus garnizoni safarbarlik chaqiruvi rezervi batalyonining xizmatchilarini axborot-texnologiya sohasi bo'yicha qo'shimcha tayyorlov kurslarini tashkil etish bo'yicha hamkorlik memorandumi imzolandi.

"Ustudy" – Uzinfocom kompaniyasi tomonidan amalga oshirilayotgan loyiha bo'lib, global muammolarga tayyor IT mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. "Ustudy" missiyasi bilim va amaliy tajribadan foydalangan holda jamiyatda hayot sifatini yaxshilashga yordam beradigan innovatsion yechimlarni yaratishdan iborat. "Ustudy" bo'lajak soha yetakchilari shakllanadigan haqiqiy IT markazi sifatida qaraladi. U amaliy mashg'ulotlar, individual ta'lim dasturlari va murabbiylik kabi noyob xizmatlarni o'rganuvchilarga taklif etishi bilan ahamiyatlidir.

Shimoli-g'arbiy harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonining birinchi o'rinbosari polkovnik Azizjon Nabiye

hamda "Ustudy" IT ta'lim berish markazi MChJ rahbari Ahrolxo'ja Rahmatxo'jayev, "Yagona integrator Uzinfocom" MChJning Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha bo'linmasi rahbariyati hamda harbiy okrug boshqaruv apparati mas'ullari ishtirok etgan tadbirda bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizning barcha sohalarida, jumladan harbiy faoliyatda ham muhim o'rin tutayotgani alohida ta'kidlab o'tildi.

Hozirgi kunda dunyoda olib borilayotgan qurolli to'qnashuvlarda nafaqat qurollar, balki kiber hamda psixologik vositalardan keng foydalanilayotgani, ularni qo'llash ko'lamini ortib borayotgani, bu yo'nalishda ham harbiy mutaxassislarni tayyorlash kabi dolzarb vazifa turgani e'tiborga olindi. Bu

borada "Qoraqalpog'iston tajribasi" sifatida yangi tizimning joriy etilishi, endilikda safarbarlik chaqiruvi rezervida xizmatni o'tash uchun kelgan chaqiriluvchilarni alohida dastur asosida tayyorlash bo'yicha kelishuvga erishilgani, zamon talabi bilan hamohang bo'lgani e'tirof etildi.

Shundan so'ng tomonlar bu yo'nalishda o'zaro hamkorlik o'rnatish borasida memorandumga qo'l qo'yilib, sovg'alar almashildi. Mehmonlar 2024-yilda kapital ta'mirdan chiqqan safarbarlik chaqiruvi rezervi batalyonining infratuzilmasi, ta'lim-tarbiya olish jarayoni, mashg'ulot xonalari hamda kutubxona bilan tanishtirildi.

Podpolkovnik Timur NARZIYEV

Umumarmiya o'yinlari – 2025

G'OLIB VA SOVRINDORLAR ANIQLANDI

Mudofaa vazirligi
miqyosida
Umumarmiya
o'yinlarining 2025-yilgi
musobaqalari bo'lib o'tdi.

Unda harbiy-amaliy va Olimpiya sport turlarining qo'ljangi, armiya biatloni, pichoq uloqtirish, tosh ko'tarish, badminton, yengil atletika, milliy kurash, o'q otish, uch kurash kabi 10 ta yo'nalish bo'yicha shaxsiy va jamoalar o'rtasida g'olib hamda sovrindorlar nomi aniqlandi.

maxsus harbiy okrug) ko'pgina xalqaro musobaqalar g'olibi Quvonchbay Berdixanov (*Shimoli-g'arbiy harbiy okrug*)ni, shuningdek Sharqiy harbiy okrug jamoasi a'zosi Farrux G'ayratov kabi raqiblariga imkoniyat qoldirmadi.

Harbiy-amaliy va Olimpiya sport musobaqalarining qolgan turlarida ham bellashuvlar qiziqarli kurashlarga boy bo'ldi. Har bir jamoaning a'zosi o'zi ishtirok etayotgan vazn toifasi yoki yo'nalishda professional sportchilarga xos harakatlarni amalga oshirgani e'tiborga molik.

Musobaqa yakunlariga ko'ra, Toshkent harbiy okrug sportchilari eng ko'p sovrinli o'rinlarni egallagan holda jamoalar o'rtasida 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Ikkinchi o'rin Mudofaa vazirligi Toifalangan obyektlarni qo'riqlash qo'shinlari qo'mondonligi jamoasiga nasib etgan bo'lsa, M a x s u s

Ikki yuzdan ortiq harbiy sportchi bellashuvlarda ko'rsatgan natijalari bilan o'z jamoalari hisobiga qimmatli ochkolarni to'plab bordi. Musobaqalarga Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti, Mudofaa vazirligi Oliy sport natijalarini rivojlantirish markazi, Toshkent harbiy okrug "Chirchiq" dala-o'quv maydoni va garnizonda joylashgan harbiy qism mezbonlik qildi.

Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug jamoasi sharafigini himoya qilgan leytenant Shohrux Davlatov yarim marafon bahslarining g'olibiga aylandi. Olimpiada hamda bir necha xalqaro musobaqalar sovrindori va ishtirokchisi sanalgan Shohrux 21 km 97,5 metrlik masofada marraga raqiblarini ancha ortda qoldirgan holda yetib keldi.

Shuningdek, bellashuvlarda ayrim kutilmagan natijalar ham qayd etildi. Makarov to'pponchasidan o'q otish bahslarida kapitan Sanjar Nosirov birinchi o'rin uchun kurashda (*Janubi-g'arbiy*



operatsiya kuchlari qo'mondonligi jamoasi sovrindorlar uchligini yakunlab berdi.

Qurolli Kuchlar akademiyasida musobaqa g'olib va sovrindorlari munosib tarzda taqdirlandi. Bahslarda o'z imkoniyatini har tomonlama namoyish etgan harbiy sportchilarga kubok, diplom va esdalik sovg'alar topshirildi.

A. RO'ZIBOYEV

Rahbar va yoshlar

KELAJAGIMIZ EGALARI DAVLAT HIMOYASIDA



Bugungi kunda mamlakatimizda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning ongiga milliy g'oya va qadriyatlarni singdirish, ajdodlarimizning munosib vorislari sifatida kamol topishlari uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Shu maqsadda Mudofaa vazirligiga qarashli Toshkent shahrida joylashgan harbiy qism va O'zbekiston yoshlar ishlari agentligi hamkorligida "Har bir yosh taqdiri davlat himoyasida!" mavzusida rahbar va yoshlar uchrashuvi tashkil etildi.

Tadbirda harbiy qism rahbariyati, Yoshlar ishlari agentligi markaziy apparati mas'ul xodimlari yosh harbiy xizmatchilar hamda Chilonzor tumanidagi harbiy qismga birlashtirilgan 100 nafarga yaqin yosh ishtirok etdi.

Uchrashuvda so'zga chiqqanlar mamlakatimizda yoshlar uchun yaratilgan imkoniyatlar, milliy armiyada amalga oshirilayotgan islohotlar va yoshlar siyosatining ustuvor yo'nalishlari haqida batafsil ma'lumot berdi.

Samimiy ruhda o'tgan muloqot davomida yoshlar tadbirkorlik faoliyati uchun kredit ajratish tartibi, qo'shimcha daromad topish uchun texnikalar xarid qilish, dasturchilik faoliyatini yo'lga qo'yish uchun joy ajratish kabi qator masalalar yuzasidan murojaat qildi. Ayrim murojaatlarga qonunchilik asosida zarur maslahatlar berildi, ayrimlari esa tegishli mutasaddi idoralar tomonidan nazoratga olindi.

Tadbir doirasida amaliyotchi psixologlar tomonidan treninglar ham o'tkazildi. Uchrashuv yakunida faol ishtirok etgan yoshlarga tashakkurnomalar topshirildi.

Musobaqa

SHIJOATLILAR BELLASHDI



Mahalla yoshlari o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, ularni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va harbiy xizmatga bo'lgan qiziqishini oshirish maqsadida Davlat xavfsizlik xizmati tuman bo'linmasi, Bo'stonliq tumanidagi Mudofaa vazirligiga qarashli harbiy qism, Yoshlar ishlari agentligi hamda O'zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo'limlari hamkorligida "Shijoat va g'ayrat" harbiy sport musobaqasining tuman bosqichi bo'lib o'tdi.

Tadbirning rasmiy qismida so'zga chiqqanlar ishtirokchilarga omad va muvaffaqiyat tilash asnosida musobaqaning yoshlarning iqtidorini rivojlantirish va jismoniy hamda ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rini alohida ta'kidlab o'tdi.


Bellashuvda ishtirokchilar musobaqa nizomiga muvofiq, turnikda tortilish, o'quv granatasini uzoqlikka uloqtirish, qisqa va uzoq masofaga yugurish, "AK-74" qurolini to'liq va noto'liq qismlarga ajratish va yig'ish hamda merganlik bellashuvda o'z mahoratlarini sinab ko'rdi.

Musobaqa yakunlariga ko'ra, 1-o'rinni Yakkatut mahalla yoshlari egalladi. 2- va 3-o'rinni Chimboyliq va Sari-kangli mahalla yoshlari qo'lga kiritdi.

TOQQQ matbuot xizmati

Muloqot

"USTOZ-SHOGIRD" an'anası davom etmoqda



Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrugga qarashli harbiy qismlarda shaxsiy tarkibning kundalik xizmat faoliyatida yuqori samaradorlikka erishish, ularning faoliyatini baholash va monitoring qilish orqali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni qondirish va shu orqali malakali kadrlar zaxirasini yaratish bo'yicha manzilli ishlar olib borilmoqda.

Kakaydi garnizonida joylashgan harbiy qismda ofitser va serjantlar ishtirokida "Harbiy xizmatchilar bilan ustoz-shogird tizimi hamda yakka tartibda ishlashda tarbiyaviy-psixologik ishlarining ahamiyati" mavzusida o'tkazilgan davra suhbatı ham mana shu ezgu maqsad uchun xizmat qildi.

Davra suhbatida Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Farhodjon Shermatov ishtirok etdi va yurt posbonlarining xizmat faoliyati bilan bog'liq masalalar yuzasidan suhbatlashdi.

Muloqot davomida harbiy xizmatchilarda kasbiy mahoratni tarbiyalash, ularning ma'naviy-ma'rifiy salohiyatini yanada oshirish, izlanishga chorlash va shu orqali ularni o'z ustida mehnat qilishga o'rgatish, shu bilan birga har tomonlama yetuk va salohiyatli, kreativ fikrlaydigan harbiylarning shakllanishida "Ustoz-shogird" an'anasining ahamiyati haqida so'z bordi.

Shu kuni harbiy xizmatchilar o'zlarini qiziqitirgan savollarga okrug qo'shinlari qo'mondonidan batafsil javob oldi.

Davra suhbatı

OGOHLIK – BUGUNNING TALABI



Jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan zamonda har xil ko'rinishdagi mafkuraviy xatarlar tobora kuchayib bormoqda. Bunday xatarlarga qarshi doimo sergak, ogoh va xushyor bo'lish zarurati davrning talabidir. Chunki e'tiborsizlik ortidan jamiyatda o'nlab bo'lmas, taraqqiyotdan ortda qolishiga sabab bo'ladigan ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy muammolar kelib chiqishi ayni haqiqat.

Shunday ko'ngilsizliklarning oldini olish maqsadida Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Xayrobod garnizonida joylashgan harbiy qismda profilaktik davra suhbatı tashkil etildi.

Tadbirda Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'shinlari qo'mondoni general-mayor Farhodjon Shermatov so'zga chiqib, harbiy xizmatchilar va oila a'zolarining huquqiy ongini oshirishning ahamiyati, qonunchilikka kiritilayotgan o'zgartirish va yangilanishlar, diniy-ekstremizm hamda mutaassiblikning salbiy oqibatlari, unga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish chora-tadbirlari, taqiqlangan psixotrop moddalarning yangicha ko'rinishlari haqida batafsil ma'lumotlar berib, barchani ogohlikka chorladi.

Shuningdek, davra suhbatida harbiy oilalarda farzand tarbiyasining o'ziga xosligi, er va xotinning oiladagi vazifasi, majburiyatlari xususida mutaxassislarning mulohazalari tinglandi.

Tadbir davomida mavzuga doir maxsus videoroliklar ham namoyish etildi.

SINGILLAR ORZUSI



ILINJ

Akam Rossiyada qurilishda ishlaydi. Bir oyda bir marta telefon qiladi. Biror savolga aniq javob bermaydi.

Ukam akamning oldiga boraman deb uydan chiqib ketgandi. Bedarak ketdi. Akam uni qidiraypti. Qayerdadir emish, daragini topibdi.

Otam kuchdan qolgan, soch-soqoli oqarib, ikrab-ikrab g'uldiraydi.

Onam xasta holi bilan otamning issiq-sovug'iga qarab turibdi.

Men o'rtancha qizman. Mening tog'dek akam, jonkuyar ukam, mehribon otam va otam yigitligida, tog'ni ura tolqon qiladigan kezlarda solgan uch xonali tomimiz bor edi. Otamning topgani oilaning tomog'idan ortmadi. Biroq biz baxtiyor edik.

Akam harbiy bo'lishni orzu qilardi. Harbiy bo'lishga xohishi ham bor edi. Ukam uchuvchi bo'lmoqchi edi, tutning shoxlarini birlashtirib parashyut tashlardi.

Ha, bolaligimiz shunday orzularga to'la edi. Akamning harbiy bo'lishiga ishonardim. Uning qasamyodiga borishni, harbiy libosda yanada o'ktam bo'lganini ko'rishni istardim. Bu haqda moychiroq yorug'ida uzoq suhbatlashardik. Moychiroqdan chiqadigan kuyindi hidi, xuddi akam boshqaradigan tankdan chiqayotgandek tuyulardi.

Ukamning xarxashasi olamni buzardi. "Men ham harbiy bo'laman, faqat uchuvchi harbiy", derdi akam bilan tirashib. Akam uni kalaka qilardi, "seni harbiyga olishmaydi, sen yig'loqisan", derdi menga mug'ombirona ko'z qisib.

"Bekor aytibsan, men yig'lamayman!" derdi ukam, battar tirashib.

"Yig'lading, maktabdan yig'lab qaytding-ku, a, men ko'rmadimmi, yolg'onmi-a, yolg'onmi gapim?"

Ularning bu suhbatlari tushlarimda takrorlanadi. Ikkalasi ham meni himoya qilish asnosida yaxshi akaligini ko'rsatish payida bo'lardi. Hech kimga xafa qildirmasdi. Menga shirin gapirgan qancha sinfdoshim yemagan somsasiga haq to'lab, burni qonagan. Ehhe, bularni sanayman desam, qog'oz tor, siyoh kam.

Har safar televideniye dan harbiylarni ko'rsatdi deguncha, ularning orasidan akamni qidiraman. Bilaman, akam ularning orasida emas, biroq odamda umid degan tuyg'u bor, bu sen bilgan haqiqatlarni ham inkor etadi. Umid senga hali ham nimadir o'zgarishini uqtiradi, ishontiradi, ilinj beradi.

LOQAYDLIK

– Oqmasjidni Rossiya olib qo'yibdir, – deb Xudoyorxonga xabar berdilar.

– Oqmasjid deganingiz shu yerdan necha kunlik yo'l? – dedi Xudoyorxon vazirlariga.

– Ikki oylik yo'l, – javob berdi vazirlar.

– Undoq uzoq yerlarning menga keragi yo'q, olsa, olaversin, – dedi beparvo.

(Tarixdan)

Men o'tirgan avtoullov Toshkentning tonggi tirband yo'lida turib qoldi. Mening ishga shoshilayotganim o'zimni tutishimdan ayon edi. Shafyor amaki "Qayerda ishlaysiz?" deb qoldi.

– Vatan tayanchi harakatida, – dedim telefonim soatiga qarab.

– Ha, bu mudofaaga qarashli tashkilotmidi?

– Ha, – yana to'lqinlanib gapirmoqchi edim-u, biroq amakining gap ohangi yoqmadi. U loqayd gapirardi.

– Endi, qizim, gap yo'g'ida gap-da, – u yo'l o'rtasida jonbozlik ko'rsatayotgan yo'l-patrul xodimidan ko'z uzmasdi. – Vatan tinch bo'lsa, qo'shnilar bilan aloqamiz yaxshi bo'lsa, shuncha harbiyni boqishdan nima ma'ni?

Boshqaruv chambaragiga qo'llarini tashlab o'tirgan "Xudoyorxon"ga nafrat bilan qaradim. Uning baqbaqali yuzi peshoyna tepasidagi ko'zguga sig'masdi.

HALI TUG'ILMAGAN O'G'LIMGA MAKTUB

O'g'lim, men sening qachon dunyoga kelishingni bilmayman. Nechta ukang va nechta singling yoki opang hamda akang bo'lishini bilmayman. Ammo singling bo'lishini istayman. Akaning akaligi singil bilan-da.

Sen o'sha singling uchun ham harbiy libos kiyishing, Vatanga qasamyod qilishing, singling sen bilan faxrlanishi, yuzingdan o'pib armiyaga kuzatishi, hatto yig'lashini, samimiy, erkalik aralash ko'zyosh to'kishini istayman.

Bilib qo'y! Dunyoda singillar uchun bundan ortiq baxt yo'q. Singillar akaning soyasidir. Akalar qancha mard bo'lsa, jasur bo'lsa, ularning soyasi ham shuncha quyuq bo'ladi. Sen chegarada qurol ko'tarib tursang-u, quyosh botayotgan bo'lsa, soyang cho'zilib boraveradi, ana shu sening singling, shu sening onang, o'sha cho'zilib borayotgan ko'lanka sening yaqinlaring.

Sening ikki tog'ang bor edi. Biri harbiy, biri uchuvchi bo'lmoqchi edi. Tirikchilik g'ami ularni uzoq yurtlarga olib ketdi. Buni qismat deyishdi. Yig'lama, singlim, deyishdi. Biroq ular men uchun faqat egniga harbiy libos kiyisa bo'ldi edi. Ular men uchun safda yerni gursullatib qadam bossa bas edi.

Biz Vatan bo'lmagan kun yoki u ko'nglimizdan o'chgan kun tarix va kelajaksiz bir mavjudotga aylanamiz. Yurish-turishimizda mazmun-mohiyat qolmaydi. Yeb-ichganimiz yuqmaydi, uyqu tatimaydi.

Ushbu maktubga Abdulhamid Cho'lponning 1923-yilda Andijonga qilgan safaridagi kundaligidan parcha ilova qilsam, meni ko'proq anglarsan:

– Nima balo? Anavilar yer haydab yotqon dehqonlar emasmi?

– Ha.

– Ot bormi, yo'qmi? Men ko'rmay yotibman.

– Ot yo'q, mullaka.

– Ho'kuz qo'shg'onmi?

– Yo'q, mullaka.

– Eshakmi?

– Yo'q, mullaka.

– Ha, bo'lmasa omochga nima qo'shqon? Nima bilan haydaydur?

– Odam bilan...

Dilnoza HAQBERDIYEVA,
Shayxontohur tumani mudofaa
ishlari bo'limi "Vatan tayanchi"
otryadi bo'linmasi boshlig'i

Vatanparvarlik

Muqaddas tuyg'u

Bugungi kunda yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash har qachongidan ham dolzarb sanaladi.

Bu borada Harbiy prokuratura organlari tomonidan kuch tuzilmalari bilan hamkorlikda maktablarda, mahallalarda o'quvchi-yoshlar ishtirokida vatanparvarlik tadbirlari va prokurorlik soatlari o'tkazib kelinmoqda.

Jumladan, joriy yilning o'tgan davrida 600 dan ziyod chegaraoldi mahalla va olis hududlardagi umumta'lim maktabida 700 ga yaqin shu kabi tadbir o'tkazilib, ularda 30 mingdan ortiq o'quvchi-yosh qamrab olindi.

Muloqot va o'zaro suhbatlarda yosh avlodning tafakkuridagi vatanparvarlik tushunchasi va hissi naqadar teran va jo'shqin ekanini anglash qiyin emas.

Vatanparvarlik – bu faqat Vatanni sevishtirish o'ziga emas, balki unga sadoqat, yurt uchun xizmat qilish va bu yo'lida, qaysi sohada va kim bo'lmasin butun umrini, borini va salohiyatini baxshida etish, kerak bo'lsa, jonini fido qilishga shay bo'lish demakdir.

Binobarin, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Bobur, Alisher Navoiy, qo'yingki, buyuk bobokalonlarimiz, jaddilarimizning ulug'ligi ham ularning vatanparvarligi emasmi?!

O'z navbatida, bu tushuncha asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuyg'u, ma'naviy qadriyatdir. Vatanparvarlik zamirida tarixiy jihatdan insonlarning yurt taqdiri bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, xalqlarning o'zlari yashayotgan hudud daxlsizligi, ozodligi, erkinligi va mustaqilligi yo'lidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuyg'ular ham mujassam. Bu Vatan

o'tmishi va buguni bilan faxrlanishda, uning istiqboli uchun daxldorlikda, manfaatlarini har qanday vaziyatda himoya qilishdagi amaliy va faol harakatlarda ko'zga yaqqol tashlanadi.

O'tkazilayotgan bu kabi tadbirlar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash barobarida, ularda ertangi kunga bo'lgan ishonch yanada ortayotgani bilan ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adliya podpolkovnigi
G'iyosiddin RAHMONOV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy
prokurorining yordamchisi

Sayyor qabul

Amaliy tadbirlar

Urganch harbiy prokuraturasi tomonidan shahardagi "Ishga marhamat" monomarkazida ommaviy sayyor qabul o'tkazildi.

Dastlab ochiq muloqot tashkil etilib, harbiylar va ularning oila a'zolariga yaratilgan sharoitlar, imkoniyat va imtiyozlar haqida hamda bugungi sayyor qabulning maqsadi va ahamiyati xususida so'z yuritildi.

So'ngra tumandagi korxona va tashkilotlardan jalb etilgan tegishli soha mutaxassislari ishtirokida Qurolli Kuchlar harbiy xizmatchilari va

xodimlari hamda ularning oila a'zolari tinglandi.

Jarayonda 29 ta murojaatdan 7 tasi joyida ijobiy hal qilingan bo'lsa, 12 tasi nazoratga olindi, 10 tasi yuzasidan huquqiy tushuntirish berildi.

Shuningdek, harbiy xizmatchilarning oila a'zolari uchun bo'sh ish o'rinlari mehnat yarmarkasi tashkil etildi. Bundan tashqari, olis

hududlardagi qator umumta'lim maktablarida vatanparvarlik tadbirlari tashkil etildi.

Harbiy orkestr jamoasi va faxriy qorovul ko'rgazmali chiqishlari yoshlarda katta taassurot qoldirdi.

Adliya podpolkovnigi
Umid NIZAMOV,
Urganch harbiy prokurori

Mardlar so'zi

SADOQAT ONTI



Sir emaski, inson hayotida unutilmas va taassurotlarga boy lahzalar ko'p bo'ladi. Alp qomatli yigitning Vatanga, xalqiga va Prezidentiga qilgan qasamyodi esa uning xotirasida bir umrga muhrlanadi.

Zero Vatanga qasamyod bu shunchaki oddiy so'zlardan iborat bo'lmay, balki qalbning tub-tubidan nido misol otilib, vujudni hayajonga chulg'ovchi, sha'n, or-nomus, shu bilan birga, mas'uliyatli burchni sadoqat va sharaf bilan ado etish o'tidir.

Milliy gvardiyaning harbiy qismlaridan birida saflarga muddatli harbiy xizmatni o'tashga kirishgan askarlarning "Vatanga qasamyod" qabul qilish marosimi ham shu kabi his-hayajon va taassurotlarga boy bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, Milliy gvardiya qo'mondonligi, Respublika harbiy prokuraturasi va harbiy sudi, keng jamoatlik vakillari hamda ota-onalar, faxriylar va nuroniylar ko'z o'ngida yuragida yurtiga muhabbati jo'sh urib turgan mardlar Vatanga sadoqat uchun ahd qildi.

So'z olganlar o'g'lonlarga samimiy tilak bildirib, kelgusi xizmatlarida omad va zafarlar tiladi.

Jarayonni kuzatar ekanman, beixtiyor quyidagi jumlar dil qaridan otilib chiqdi:

*Vatanga qasamyod mardlar so'zidir,
Lafziga sodiqlar chin botir, tanti.
Ahdin ado etmoq erlar yuzidir,
Vatanga qasamyod – sadoqat onti!*

Adliya podpolkovnigi Botir SOBIROV,
O'zbekiston Respublikasi Harbiy
prokurorining katta yordamchisi

Malaka

Malayziya tajribasi



o'rganilmoqda

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Biznes va tadbirkorlik oliy maktabi tashabbusi bilan hozirda respublikamizning bir qator vazirlik va idoralari rahbar kadrlari va xodimlari moliyaviy texnologiyalar sohasida malaka oshirmoqda.

Ular dastlab Biznes va tadbirkorlik oliy maktabida, keyinchalik Malayziyaning poytaxti Kuala-Lumpur shahrida joylashgan Osiyo-Tinch okeani universiteti (*Asia Pacific University*)da jami 12 kunlik o'quv kursida ishtirok etmoqda.

Mazkur o'quv kursida "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi Husan Botirov hamda marketing va ishlab chiqarish bo'limi boshlig'i Davron Mustakimov qatnashmoqda.

Mashg'ulotlar davomida tinglovchilar boshqaruvda raqamli texnologiyadan foydalanish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va xizmat sifatini oshirish, blokcheyn, biznes-tahlil, kraudfanding

kabi moliyaviy texnologiyalarning zamonaviy yo'nalishlari bo'yicha bilim va malakalarini oshirmoqda.

O'quv kursi doirasida Malayziyaning moliyaviy texnologiyalar sohasidagi ilg'or tajribaga ega tashkilotlariga ekskursiyalar tashkil etiladi.

O'quv kursi yakuniga yetgach, egallangan bilim va ko'nikmalar "Vatanparvar" tashkilotining tadbirkorlikdan iborat bo'lgan yo'nalishlariga tatbiq etilishi va bu boradagi ishlar samaradorligining yanada oshirilishi rejalashtirilgan.

Shunqorlar



Tuman bosqichi davom etmoqda

Aprel oyida start olgan "Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarining birinchi bosqichida Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlarning tuman hamda shaharlarida jamoalar g'oliblik uchun bellashmoqda.

O'yinlarda umumta'lim maktablari va kasb-hunar ta'limi muassasalarining 17 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan o'quvchilari va talabalaridan tashkil topgan jamoalar ishtirok etmoqda.

"Shunqorlar" harbiy sport o'yinlarining tuman (*shahar*) bosqichida yoshlar uch blokdan iborat sinovlardan o'tkazilmoqda:

"Harbiy-vatanparvarlik bloki"da jamoa a'zolarining O'zbekiston tarixiga

doir bilimlari tekshiriladi. Shuningdek, "Saf qo'shig'i" va "Biz – bir jamoamiz!" ko'rik-tanlovlari o'tkaziladi.

"Harbiy-amaliy ko'pkurash bloki"da jamoalar pnevmatik quroldan o'q otish, o'quv granatasini uzoqlikka uloqtirish va harbiylashtirilgan estafeta bo'yicha bellashadi. Harbiylashtirilgan estafeta doirasida yoshlar "AK-74" avtomatini qismlarga ajratish va yig'ish hamda gazga qarshi niqobni kiyib, belgilangan masofaga yugurish shartlarini bajaradi.

"Sport bloki"da ular duatlon, 100 metr masofaga yugurish va turnikda tortilish bo'yicha kuch sinashadi.

Mazkur o'yinlarni o'tkazishdan asosiy maqsad – yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, chaqiruvga qadar yoshlarni Qurolli Kuchlar safida xizmat qilishga qiziqishini oshirib borish hamda ularni ruhan va jismonan chiniqtirishdan iborat.

Jarayon

INSON QADRI UCHUN

Namangan harbiy prokuraturasi tomonidan Chust tumanida ommaviy sayyor qabul o'tkazildi.

Unda tashkilot va idoralardan jalb etilgan mutaxassislar ishtirokida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari tinglandi.

Jarayonda ko'tarilgan masalalarni joyida hal etishga asosiy e'tibor qaratildi, shuningdek murojaatlarning ko'pchiligi yuzasidan huquqiy tushuntirish berilib, ko'rib chiqilishi muddat talab etadiganlari nazoratga olindi.

Shu bilan bir qatorda, harbiylarning oila a'zolari va yoshlar, jumladan muddatli harbiy xizmatni o'tab qaytgan yigitlar uchun mehnat yarmarkasi tashkil etilib, ularga korxona va tashkilotlarning vakant lavozimlari taklif etildi.

Ayni jarayonda harbiy xizmatchilarning turmush o'rtoqlari va farzandlari uchun tashkil etilgan kitoblar ko'rgazmasi ham tashrif buyurganlarga manzur bo'ldi.

Adliya podpolkovnigi
Sardor OXUNOV,
Namangan harbiy prokurorining yordamchisi

Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotlarida

YOSHLAR FAOLIYATIGA

MUHIM E'TIBOR



Keyingi yillarda O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkilotining Xorazm viloyati kengashi tasarrufidagi Xiva tumani o'quv sport-texnika klubida yoshlarning jismoniy va ma'naviy yetuk bo'lishiga muhim e'tibor qaratilmoqda.

Jumladan, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularni sportning texnik va amaliy turlariga jalb etish hamda ona Vatanga sadoqatli farzandlar sifatida kamol topishiga ko'maklashish bu borada olib borilayotgan ishlar sirasidandir.

– Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda ularning intellektual jihatdan kamol topishi va ma'naviy rivojlanishini ta'minlash maqsadida bir qancha hamkor tashkilotlar bilan kelishilgan reja asosida faoliyat olib borilmoqda, – deydi O'STK boshlig'i Davronbek Yuldashev. – Ma'naviyat va harbiy-vatanparvarlik targ'iboti doirasida turli tadbirlar o'tkazilishi an'anaga aylangan. Chunonchi, 9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan "Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi!" shiori ostida o'tgan tadbirlar davomida ishtirok etgan turli soha vakillari ota-bobolarimizning el-yurt tinchligi yo'lidagi jasorati, ular ko'rsatgan qahramonliklar haqida so'z yuritdi. Shuningdek, ular yurtimizda yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar hamda mavjud imkoniyatlardan unumli foydalanish to'g'risida muhim tavsiyalar berdi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti markaziy kengashi raisi kubogi uchun "Vatanparvarlik – oliy maqsadim" shiori ostida an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan "Shunqorlar" harbiy sport musobaqasining Xiva tumani bosqichi 6-umumta'lim maktabi bazasida bo'lib o'tdi. – 17 yoshdan 22 yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar o'rtasida o'tkazilgan tadbirda ishtirokchilar musobaqa shartlari bo'yicha o'zaro bellashdi, – deya ta'kidladi klub mutaxassisi Nodira Ozodova. – Qizg'in kechgan bahslar natijasiga ko'ra, 1-o'rin 19-umumta'lim maktabi jamoasiga nasib qilib, viloyat bosqichiga yo'llanmani qo'lga kiritdi. 2-o'rinni 6-umumta'lim maktabi jamoasi egallagan bo'lsa, faxrli 3-o'ringa 13-umumta'lim maktabi o'quvchilari munosib deb topildi. G'olib va sovrindorlarga tadbir tashkilotchilari tomonidan diplom va esdalik sovg'alar topshirildi.

Tuman yoshlarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida klub



qoshida "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon" va "Duatlon" kabi seksiyalar faoliyati yo'lga qo'yilgan hamda 50 nafarga yaqin iqtidorli yosh jalb etilgan.

Ayni paytda klubda ommaviy kasb xodimlarini tayyorlash ishlari ham namunali tashkil etilgan. Shu kunlarda bu yerda "A", "B", "BC", "BE", "CE" toifali haydovchilar tayyorlanmoqda.

Tinglovchilarning kasb-hunarlarini puxta egallab olishi uchun yangi-yangi zamonaviy rusumdagi o'quv-mashq avtomobillari olib kelindi. Albatta, klubdagi bu kabi qulay imkoniyatlar kelgusida tinglovchilarning malakali haydovchilar bo'lib shakllanishida muhim o'rin tutadi.

Akbar ALI

Hamkorlik

**Bugungi kunda
O‘zbekiston Respublikasi
mudofaasiga
ko‘maklashuvchi
“Vatanparvar”
tashkilotining
Qoraqalpog‘iston
Respublikasi kengashi
tasarrufidagi Ellikqal’a
tumani o‘quv sport-
texnika klubi tomonidan
yoshlar ma’naviyatini
yuksaltirish, ularni
harbiy-vatanparvarlik
ruhida tarbiyalashga
alohida e’tibor
qaratilmoqda.**



HAMKORLIKDAGI XAYRLI ISHLAR



Xususan, sportning texnik va amaliy turlarini rivojlantirish, o'sib kelayotgan yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish borasidagi xayrli ishlar shular jumlasidan. Klub jamoasi ayni kunlarda tumandagi ko'plab davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda ma'naviyat va harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha izchil targ'ibot tadbirlarini olib bormoqda.

– Chunki yosh avlodning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga ko'maklashish tashkilotimizning ham muhim vazifalaridan biridir, – deydi O'STK boshlig'i Sardorbek Xadiyev. – Yaqinda tumanimizdagi

maktab va maktabgacha ta'lim bo'limi tasarrufidagi 22- hamda 61-umumta'lim maktablarida va bir qator ovul fuqarolar yig'inlarida 9-may – Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan tuman hokimligi, mudofaa ishlari, Yoshlar ishlari agentligi, ma'naviyat va targ'ibot markazi tuman bo'limlari bilan hamkorlikda "Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi!" mavzusida ma'naviy-ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Tadbirda ishtirok etgan faxriylar urush yillarining sitamli xotiralaridan so'zlab berdi. Yurt ravnaqiga siddiqdildan xizmat qilish, uning tinchligi va osoyishtaligini ko'z qorachig'idek asrash har birimizning

burchimiz ekanini ta'kidladi. Albatta, bunday tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad, yoshlarni barkamol shaxs sifatida tarbiyalashdir.

Bundan tashqari, klubda maktab o'quvchilariga yo'l harakati qoidalarini o'rgatish, xavfsiz harakatlanish ko'nikmalarini shakllantirish borasida ham salmoqli ishlar bajarilmoqda. Bolalar ishtirokidagi yo'l-transport hodisalarining oldini olish maqsadida targ'ibot tadbirlari tashkil etilmoqda. Bu orqali o'quvchi-yoshlar ko'cha va chorrahalarda to'g'ri harakatlanish qoidalarini bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Ta'kidlash joizki, klubda "A", "B", "C", "BC" toifali haydovchilar tayyorlash va ularning malakasini oshirish borasida ham bir qancha amaliy ishlar qilinmoqda. Shuningdek, yoshlar o'rtasida sportning texnik va amaliy turlarini ommalashtirish ham tashkilot faoliyatining muhim bo'g'ini hisoblanadi. Ayni paytda faoliyat ko'rsatayotgan "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon" kabi seksiyalarda o'ttiz nafardan ortiq yosh muntazam shug'ullanib kelmokda. Klub a'zolari turli musobaqalarda ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni egallamoqda.

Akbar ALLAMURODOV

BOLALAR BAXTI — MILLAT KELAJAGINING KAFOLATI

Bola — jamiyatning ertangi kuni, kelajak poydevori. Bolalarning sog'lom, baxtli va xavfsiz muhitda o'sishi har bir davlatning ustuvor vazifasidir. Zo'ravonlik esa nafaqat bola ruhiyati, balki uning kelajakdagi hayotiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalarga nisbatan zo'ravonlik jismoniy, psixologik, jinsiy va iqtisodiy shakllarda namoyon bo'lishi mumkin. Shu bois O'zbekiston Respublikasida bolalarni har qanday zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha qator huquqiy va institutsional choralar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida bola huquqlari alohida e'tirof etilgan bo'lib, xususan 78-moddada bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash hamda himoya qilish, uning jismoniy, aqliy va madaniy jihatdan to'laqonli rivojlanishi uchun eng yaxshi shart-sharoitlarni yaratish davlatning majburiyati ekani mustahkamlangan.

Bundan tashqari, O'zbekiston 1992-yil 9-dekabrda BMTning "Bola huquqlari to'g'risida"gi konvensiyasiga qo'shilgan

va shu orqali xalqaro majburiyatlarni o'z zimmasiga olgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi qonuni esa bola huquqlarining kafolatlari sohasidagi munosabatlarni tartibga solishni nazarda tutadi.

2024-yilning 14-noyabr kuni "Bolalarni zo'ravonlikning barcha shakllaridan himoya qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuni imzolangan, bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish, ularning shaxsiy daxlsizligi, erkinligi va sha'nini himoya qilish borasida mustahkam huquqiy poydevor bo'ldi. Mazkur qonunda bolalarni ta'lim muassasalarida, oilada, davlat tashkilotlarida va boshqa joylarda zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha aniq talab va mexanizmlar nazarda tutilgan. Shuningdek, mazkur qonunda bolalarga nisbatan zo'ravonlikning bir qancha turlari, xususan jismoniy zo'ravonlik, ruhiy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, iqtisodiy zo'ravonlik kabi tushunchalarga aniq ta'riflar berib o'tildi.

Endilikda, bolaning hayotiga, sog'lig'iga, jinsiy daxlsizligiga, sha'niga, qadr-qimmatiga hamda qonun bilan himoya qilinadigan boshqa huquq va erkinliklariga tajovuz qiladigan, jismoniy yoki ruhiy azob yetkazayotgan yoki yetkazishi mumkin bo'lgan hamda asosiy ehtiyojlariga zid bo'lgan, shu jumladan telekommunikatsiya tarmoqlaridan va internet butunjahon axborot tarmog'idan foydalangan holda amalga oshiriladigan, qasddan sodir etiladigan harakat (*harakatsizlik*) bolalarga nisbatan zo'ravonlik deb e'tirof etiladi. Shuningdek, zo'ravonlikdan jabrlanuvchi va uning qonuniy vakili moddiy va ma'naviy zararni qoplash to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat qilganda, qonunga muvofiq davlat bojini to'lashdan ozod etiladi.

Hozirgi kunda bola huquqlarini ta'minlash doirasida bir qator institutlar faoliyat olib boradi. Jumaladan, bola huquqlari bo'yicha

vakil (*ombudsman*), ichki ishlar organlari, psixologik xizmatlar, mahalla hamda oila bo'limi va boshqalardir. Bundan tashqari, ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalarida ham bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish

bo'yicha maxsus o'quv kurslari, profilaktik tadbirlar o'tkazilmoqda.

Hozirgi kunda ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, yanada samarali himoya tizimini yaratish uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq deb o'ylayman:

Bolalarning o'z huquqlarini bilishini ta'minlash – maktablarda bola huquqlari bo'yicha majburiy darslar joriy etilishi lozim.

Ota-onalar va ustozlarni o'qitish – bolaga zo'ravonlikdan munosabat madaniyatini shakllantirish kerak.

Media va internet orqali zo'ravonlikka qarshi tashviqot – keng jamoatchilikka zo'ravonlikning oqibatlarini haqida yetkazish.

Qonunbuzarlarga nisbatan qattiq jazo choralarini – zo'ravonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan mustahkam huquqiy javobgarlikni ta'minlash.

Xulosa o'rinda shuni aytishimiz joizki, O'zbekistonda bolalarni zo'ravonlikdan himoya qilish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda, lekin bu yo'nalishdagi ishlarni yanada chuqurlashtirish, mukammal tizim yaratish zarur. Bolalar baxti millat kelajagining kafolatidir. Shuning uchun ham har birimiz bolalar huquqlarini himoya qilishga o'z hissamizni qo'shishimiz shart.

Dilfuza ABDULLAYEVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va inson huquqlari
kafedrasida dotsenti

@Vatanparvargazetasi_bot
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati
bilan bog'lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

VATANPARVAR



MUASSIS
O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MUDOFAA
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

Tahririyat kengashi:
general-mayor Hamdam Qarshiyev
polkovnik Otabek Yuldashev
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqiriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

Bosh muharrir:
podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Telefonlar:
kotibiyat: 55 511-25-90
buxgalteriya: 55 511-25-76
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

Navbatchi: kapitan Bobur Elmurodov
Sahifalovchi: Begali Eshonqulov
Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-5939
Hajmi: 6 bosma taboq
Bichimi: A3
Adadi: 33 269 nusxa
Bosishga topshirish vaqti: 14:00
Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi. Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqq boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.
Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy.



t.me/mv_vatanparvar_uz
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz
vatanparvar-bt@uamail.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya